

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida

VAXOBJONOV OYBEK ANVARJON O'G'LI

**Namangan viloyati iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida
davlatning sanoat yo`nalishidagi siyosati**

Mutaxassislik: 5340100 – “Iqtisodiyot”

Bakalavr akademik darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga ruxsat etildi: _____ Kafedra mudiri: i.f.n., dotsent R.B.Ismoilov «__» «_____» 2016 yil	Ilmiy rahbar: _____ i.f.n. dotsent A.Shermatov «__» «_____» 2016 yil
Fakul tet dekani: _____ i.f.n. dotsent K.J.Matkarimov «__» «_____» 2016 yil	

Namangan-2016 yil

M U N D A R I J A

Kirish	
I-bob. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda sanoat korxonalarining tutgan o'rne va ahamiyati	
1.1-§ Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoatning o'ziga xos o'rne va tashkiliy-huquqiy asoslari	
1.2-§ Sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirishning ob'ektiv zaruriyati, manbalari va ahamiyati	
1.3-§ Mamlakatimizda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash borasida davlatning sanoat yo'nalishidagi siyosati	
II-bob. Namangan viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning hozirgi holati va uning iqtisodiy tahlili	
2.1-§. Namangan viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili	
2.2-§. "Popdonmahsulotlari" aksiyadorlik jamiyatining moliya-xo'jalik faoliyati iqtisodiy tahlili	
III-bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va ularning raqobatbardoshligini oshirish yo'llari	
3.1-§. Sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va ularning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari	
3.2-§. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat korxonalari faoliyatini rivojlantirish istiqbollari	
Xulosa va takliflar	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, erkin bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy tizimga asta-sekinlik bilan bosqichma-bosqich o'tib borilmoqda. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot bir tomondan jahon tajribasiga tayansa, ikkinchi tomondan o'ziga xosligi, betakrorligi bilan ajralib turadi. Chunki, O'zbekiston o'ziga xos tarixga, an'analarga urf-odatlariga, siyosiy va mafkuraviy qarashlarga, ma'naviyatiga ega.

Har qanday iqtisodiyot aholining talab va ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq. Chunki ishlab chiqarilgan mahsulot ham, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar ham aholi tomonidan iste'mol qilinadi. Shunday ekan zamonaviy iqtisodiyot o'ziga xos mexanizmlarni, ishlab chiqarishni va undan samarali foydalanishni talab qiladi. Mamlakat iqtisodiyotini boshqarishda qo'llaniladigan eng muhim iqtisodiy dastaklardan biri mikro ko'lamdagi korxonalarni xo'jalik faoliyati va ular bilan bog'liq iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Ana shu munosabatlar ya'ni ishlab chiqarish munosabatlari jamiyatdagi har qanday boshqa ijtimoiy munosabatlarning asosini tashkil etadi. Ishlab chiqarish sohasidagi korxonalarni tashkil etilishi va rivojlanib borishi mamlakatdagi aholini ish bilan band bo'lishi va farovon turmush tarzini shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki korxona insoniyatni ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan jamiyatni birlamchi va asosiy bo'g'inidir.

Shu bois mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, iqtisodiyotning real sektorini yanada rivojlantirish ko'p jihatdan korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish jarayonini samarali tashkil qilish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yanada yaxshilash, sanoat korxonalarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, shu asosda ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bu borada qabul qilingan qonunlar, sanoat korxonalariga yaratilgan qulayliklar, soliq yukining pasaytirilishi, yangi ish boshlagan korxonalarni

vaqtincha soliqlardan ozod etilishi, mamlakatdagi tarkibiy o'zgarishlarda qulay investitsiya muhitining yaratilganligi va shu orqali jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi salbiy oqibatlarini bartaraf etish ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

2015 yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalarini amalga oshirish natijasida iqtisodiy rivojlanishning barqaror yuqori sur'atlari, makroiqtisodiy mutanosiblik, aholi hayot darajasining barqaror o'sishi va mamlakatning jahon bozoridagi mavqeini mustahkamlash ta'minlandi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ma'ruzalarida o'tgan yilda erishilgan natijalar birma-bir sarhisob qilinib, barcha ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarga alohida to'xtalib o'tildi. Jumladan, yalpi ichki mahsulot 8 foizga, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi ham 8 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari haryib 7 foizga, qurilish-montaj ishlari hajmi – 18 foizga o'sdi¹.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'tgan yilda erishilgan ana shunday o'sish sur'atlari va yuksak makroiqtisodiy ko'rsatkichlar jamiyatimizning barcha sohalarini tubdan isloh qilish va yangilash bo'yicha amalga oshirilgan ko'p yillik mashaqqatli va murakkab ishlarning mantiqiy natijasi, mamlakatimiz iqtisodiyotini tizimli, izchil va barqaror rivojlantirishning yaqqol amaliy namoyoni bo'ldi.

Bugungi kunda sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish, ularning sifatini yaxshilash va raqobatbardoshligini oshirish masalalarini hal etishda, eng avvalo, mazkur sohada xuquqiy bazani mustahkamlash, iqtisodiyotning mazkur sektori uchun qulayliklar yaratish masalalariga jiddiy e'tibor berilayotgani tufayli erishilmoqda. Shu nuqtai nazardan hamda ushbu masala hozirgi islohotlarni chuqurlashuvi sharoitida nihoyatda dolzarb bo'lganligidan ushbu mavzuni bitiruv malakaviy ishiga mavzu sifatida tanlab olindi.

¹ «Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir» – Prezident Islom Karimovning 2015 yilning asosiy yakunlari va 2016 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2016 yil 15 yanvar

Mavzuning o'rganilganlik darajasi.

Mamlakatimizda va xorijiy mamlakatlardagi yetakchi iqtisodchi olimlar mazkur masala bo'yicha qator tadqiqotlarni amalga oshirganlar.

Jumladan, iqtisodchi olimlardan M.Albert, F.Xedouri, V.Kim, R.Rumyantseva, V.Chjen, S.G'ulomov, M.Sharifxo'jaev, V.Shepelev, M.Rasulov, T.Sharifulina, V.Peznev, Sh.Karmisheva, E.Maxmudov, Sh.Zaynitdinov, P.Tursunxojaev, A.Ortiqov, A.Utkin, G.Savitskaya, N.Zaytsev, V.Dubrovskiy, F.Ahmedov, A.O'razbekov va boshqalar ushbu soha rivoji bo'yicha qator ishlarni bajarganlar va ma'lum darajada iqtisodiy samaraga erishganlar. Amalga oshirilgan tadqiqotlar va izlanishlarda mazkur masalaga ham katta e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitini hisobga olgan holda ushbu masala yanada jiddiy e'tibor qaratishni talab etadi.

Muammoning hozirgi vaqtda dolzarbligini inobatga olib, uni bitiruv malakaviy ishiga mavzu sifatida qabul qilindi hamda mavzuning dolzarbligidan, maqsadning qo'yilishidan kelib chiqqan holda quyidagi maqsad va vazifalar belgilandi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun bitiruv malakaviy ishida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda sanoatning o'ziga xos o'rni va tashkiliy-huquqiy asoslarini nazariy jihatdan o'rganish;
- Sanoat korxonalarida sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishning ob'ektiv zaruriyati, manbalari va ahamiyatini keng yoritib berish;
- Namangan viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyatining hozirgi holati iqtisodiy tahlilini amalga oshirish;

- Sanoat korxonalari faoliyatida mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishlarini belgilash;

- Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat korxonalari faoliyatini rivojlantirish istiqbollari hamda ularda zamonaviy ilg'or texnologiyalardan samarali foydalanishni takomillashtirish yo'llarini taklif qilish va hokazo.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti.

Namangan viloyatida joylashgan sanoat korxonalarining umumiy ko'rsatkichlari va "Popdonmahsulotlari" OAJ korxonasi bitiruv malakaviy ishining ob'ektini tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari qilib Prezidentimiz I.A.Karimovning ma'ruza va asarlarida bayon etilgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni amalga oshirish bo'yicha ilgari surilgan fikr-mulohazalar va asosiy yo'nalishlar, O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, iqtisodchi olimlarning ushbu yo'nalishda amalga oshirgan ilmiy ishlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda erishilgan ilg'or tajribalar olindi.

Bitiruv malakaviy ishining xajmi va tuzilishi.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

I-bob. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda sanoat korxonalarining tutgan o'рни va ahamiyati

1.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoatning o'ziga xos o'рни va tashkiliy-huquqiy asoslari

Sanoat – moddiy ishlab chiqarishning eng yirik yetakchi tarmog'i bo'lib, unda mehnat qurollari (vositalari), mehnat buyumlari va xalq iste'mol tovarlarining ko'pchilik qismi yaratiladi. Unda mashina va mexanizmlarning barcha turlari, bino va inshootlarning konstruktiv elementlari ishlab chiqariladi, yer osti boyliklarini qazib olish amalga oshiriladi, mineral, o'simlik va hayvon xomashyosiga ishlov beriladi hamda keng iste'mol mollari tayyorlanadi.

Sanoat xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurollari bilan ta'minlaydi. Milliy iqtisodiyot, fan, maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport, turizm va boshqa sohalar rivoji sanoatning taraqqiyot darajasiga bog'liq.

Ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari taraqqiyotida sanoatning tarixiy roli beqiyosdir. Shu sababli uning rivoji va samaradorligi qanchalik yuqori bo'lsa, davlatning mavqei shunchalik kuchli bo'ladi va aholi turmush darajasi yanada yaxshilanib boradi.

Sanoat jamiyatning yetakchi kuchi bo'lgan ishchilar sinfini o'zida birlashtiradi. Sanoat rivoji tufayli unda band bo'lgan xodimlarning soni ko'payadi, ularning bilim va ilmi, mahorati ortadi, kadrlar salohiyati yuqori darajaga ko'tariladi.

Mehnatni ijtimoiy tashkil qilishning eng oliy turi, kontsentratsiyaning yuqori darajasi va shu asosda ijtimoiy ishlab chiqarishni uyushtirishning ilg'or usullari – ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish va kombinatlashtirish, ko'plab ishlab chiqarish va uzluksiz potok sistemasi yordami bilan tashkil etish sanoat sohasida hukmronlik qiladi.

Faqat yirik mashina industriyasigina fan va texnikaning barcha yutuqlarini o'zida to'plab, mujassamlashtirib, mehnatni texnika bilan qurollantirishi va uning unumdorligini yuqori darajaga ko'tarishi mumkin.

Sanoat va ayniqsa uning eng muhim sohasi bo'lgan og'ir sanoat mamlakatda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning asosi hisoblanadi. U moddiy texnika vositalarini o'zi va boshqa tarmoqlar uchun takror ishlab chiqarish bilan bir vaqtda jamiyat a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirib boradi.

Sanoat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini qayta qurishning negizi hisoblanadi. Uni yangi texnika bilan ta'minlash orqali sanoat dehqon xo'jaligini iqtisodiy va madaniy jihatdan yuqori darajaga ko'tarishga, shahar bilan qishloq o'rtasidagi muhim tafovutni yo'qotishga, dehqon mehnatini industrial mehnatga aylantirishga yordam beradi.

Sanoat mamlakat mudofaa qobiliyatining moddiy manbai, dunyoda tinchlikni saqlashning muhim omili, mamlakatlar mustaqilligini va birdamligini ta'minlovchi muhim sohadir. O'zbekiston davlatining mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlashda sanoatning roli muhimdir.

Barcha mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy intilishlari, ularning xo'jalik jihatdan hamkorligi sanoat sohasida ham o'z ifodasini topadi. Davlatlarning tabiiy, mehnat resurslaridan, ilm-fan va texnikaning barcha yutuqlaridan foydalanish imkoniyatlarining kengayishida sanoatning ahamiyati salmoqlidir.

Sanoat uchun uzluksiz fan-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarish ilm-fan yutuqlari bilan qurollanishining o'sishi xarakterlidir. Unda elektrlashtirish va elektronizatsiyalash, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va komp yuterlashtirish hamda ximiyalashtirish sohasidagi ilg'or yutuqlardan keng foydalaniladi va ularning yutuqlarini tinchlik maqsadida qo'llaniladi.

Sanoat, ayniqsa uning ustuvor sohalari butun ishlab chiqarishni globalashtirish muammolarini hal etishning kalitidir.

Sanoat moddiy ishlab chiqarishniing bosh tarmog'i, iqtisodiyotning poydevoridir. Milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qayta qurishga qodir bo'lgan yirik mashinalashgan sanoatgina mustaqillikning birdan bir moddiy negizi bo'lishi mumkin.

Mamlakat aholisining ish bilan bandligini oshirishda sanoatning roli beqiyosdir. O'zbekistonda mehnatga layoqatli aholining 13 foizi sanoat ishlab chiqarish hissasiga to'g'ri keladi. Shuni ta'kidlash kerakki, kelajakda respublika sanoatining jadal sur'atlar bilan ta'minlanishi yanada yaxshilanib, mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi, ya'ni bandlik darajasi anchagina yuksaladi. Jamiyatning yetakchi, bunyodkor, qudratli kuchi bo'lgan kadr (xodim)larning anchagina qismi sanoatda xizmat qiladi. Bu tarmoqning yanada ulkan rivoji sanoat kadrlari sonining oshishiga va ularning jamiyatdagi mavqeini ko'tarishga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi sanoatining taraqqiyoti yuqori malakali ishchi kadrlar, muhandis va texnik xodimlarni yaratdi. Hozirgi paytda O'zbekiston sanoatida 1,2 millionga yaqin xodim ishlamoqda. Ularning qariyb yarmi oliy ma'lumotli mutaxassislardir, 600 mingdan ortig'i esa o'rta va o'rta maxsus ma'lumotli xodimlardir.

Jamiyat taraqqiyotining muhim qonuniyatlaridan biri sanoat xodimlarining madaniy – texnik saviyasi o'sishi, ishlab chiqarish malakasi va tajribasini tinmay oshib borishidir.

Ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishni ta'minlovchi buyuk harakatlantiruvchi kuch – raqobat ham avvalo, sanoat sohasida vujudga keldi va rivojlana boshladi. Tadbirkorlar, ishbilarmonlar bellashuvning bayroqdori bo'lib maydonga chiqdilar. Respublika sanoatida ham raqobat o'zining oddiy bosqichidan eng yuqori bosqichiga ko'tarilib, chinakam umumiy dastakka aylanmoqda.

Mustaqillikning afzalliklari va davlat iqtisodiy siyosatining yetakchilik rolini yanada oshirmoqda. Oliy Majlisning qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar

Mahkamasining qarorlari eng avvalo, sanoat sohasida amalga oshirilmoqda va sezilarli samara bermoqda.

Sanoat tabiatda uchraydigan moddiy boyliklarni qazib chiqarish va tayyorlashni, ularni va qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlashni o'z ichiga qamrab oladi. U barcha xalq xo'jaligi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish kuchlarining asosiy elementlaridan biri hisoblangan jamiyatning tabiat ustidan hukmronligini birmuncha orttiradigan, fan-texnika taraqqiyotini belgilaydigan, inson mehnatining unumdorligini oshirishga imkon beradigan, mehnat va ishlab chiqarish qurollarini yaratadigan sohadir.

Sanoat taraqqiyoti ishlab chiqarish kuchlarining bir tomonlama rivojlanishiga xotima beradi, mamlakat va uning ajralmas qismi bo'lmish viloyatlarning tabiiy boyliklaridan, xomashyo va mehnat resurslaridan kengroq va har tomonlama foydalanish imkoniyatini yaratib beradi.

Sanoatning vujudga kelishi va rivojlanishi mehnat taqsimotining o'sishi, ishlab chiqarishni differentsiyalash va intensivlashtirish bilan chambarchas bog'liq.

Hozirgi zamon yirik sanoati bir biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ko'pgina tarmoqlar va ishlab chiqarishlardan tashkil topadi. Bugungi kunda respublika sanoatida 175 tarmoq, 1500 ga yaqin yirik va o'rta sanoat korxonalari mavjud.

So'nggi vaqtlarda mamlakatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish yildan yilga o'sib bormoqda. Buni quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin.

2009-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy o'sish

Yillar Ko'rsatkichlar	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil
Yalpi ichki mahsulotning yillik o'zgarishi, %	8,1	8,5	6,3	8,2	8,0	8,1	8,0
Sanoat ishlab chiqarishidagi yillik o'zgarish, %	9,0	8,3	8,3	7,7	8,8	8,3	8,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

O'zbekiston iqtisodiyotining ko'rsatkichlari ijobiy bo'lishining eng muhim sabablari – bu mavjud sanoat tarmoqlarining kerakli hajmda saqlab qolib, yangi tarmoqlarni yaratish strategiyasi bo'ldi. Mustaqillikning birinchi yillaridanoq O'zbekiston hukumati uchun real sektorni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib hisoblanadi. Respublikamizning o'z-o'zini yoqilg'i-energetika mahsulotlari bilan ta'minlash siyosati (neft va neft mahsulotlari hamda gaz ishlab chiqarishning keskin o'sishi), qo'shimcha qiymat yaratuvchi (mashinasozlik, yog'och va yog'ochni qayta ishlash) sohalarining intensiv rivojlanishi bilan birgalikda olib borildi. Shu bilan birga, qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat sanoatlarining rivoji ham qayd etildi.

Umuman olganda, tarmoqlar bo'yicha ishlab chiqarish tarkibida og'ir sanoat (yonilg'i-energetika majmuasi, mashinasozlik, metallurgiya) salmog'ining oshishi yengil sanoat ulushi hisobiga bo'lmoqda. Natijada, mustaqil iqtisodga xos bo'lgan darajaga yaqinlashish yuz bermoqda va sobiq ittifoq mamlakatlarida qayta ixtisoslashuvdan paydo bo'layotgan yetishmovchilik va tobelikning oldini olish ta'minlanmoqda. Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va qo'shimcha qiymat

yaratuvchi sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy strategiya respublikaga yaxshi natijalar keltirmoqda.

O'zbekiston o'zining oltini, paxta tolasi va ipagi, nefti va gazi, samolyot va avtomobillari, paxta terish mashinasi va paxtani qayta ishlash mashinalari bilan, ekskavator va kompressorlari, vino va konservalari hamda bir qator boshqa sanoat mahsulotlari bilan dunyoga mashhurdir.

O'zbekiston respublikasining industrial qiyofasini energetika, kon-ruda, oltin qazib oluvchi, samolyotsozlik va avtomobilsozlik sanoatlari, elektrotexnika va elektron sanoatlari, ko'p tarmoqli mashinasozlik va qurilish materiallari sanoati belgilab bermoqda.

Sanoat - bu ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Demak, sanoat ob'ektiv reallik (borliq) ning in'ikosi va yuksak umumlashmasidir. Uning alohida tarmoq, ya'ni ijtimoiy ishlab chiqarishning alohida sohasi bo'lib yuzaga kelishi ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy mehnat taqsimotining rivoji bilan tarixiy jihatdan bog'liqdir. Sanoat ham ob'ektiv borliqning muhim hodisalari qatorida ma'lum davr (vaqt va fazo) da dunyoga kelgan, muayyan qonun va qoidalar asosida rivojlangan, ma'lum miqdor va sifatlarga, zaruriyat va imkoniyatlarga ega bo'lgan hamda ziddiyatlar qurboni ham bo'lgan.

O'zbekiston sanoati ham o'z taraqqiyoti jarayonida bir qator bosqichlarni bosib o'tdi. Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng sanoat korxonalarida chuqur tashkiliy va iqtisodiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Ko'plab korxonalar davlat tasarrufidan chiqarilib, ochiq turdagi aktsiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi, ilgari tarmoq korxonalariga rahbarlik qilgan vazirliklar tugatilib, «Oziq-ovqatsanoat» davlat aktsiyadorlik kontserni, «O'zmevasabzavot-xolding» kompaniyasi, «O'zgo'shtsanoat» davlat aktsiyadorlik uyushmasi, «O'zdonmahsulot», «O'zbaliq» davlat aktsiyadorlik korporatsiyalari tashkil etildi.

1.2. Sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirishning ob`ektiv zaruriyati, manbalari va ahamiyati

Mamlakatimizda mustaqil taraqqiyotning dastlabki bosqichlaridayoq iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, texnik jihatdan qayta jihozlash orqali turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllariga asoslangan korxona va birlashmalar faoliyatini yanada rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Natijada, bugungi kunda mamlakatimizni, avvalo, iqtisodiyotimizni isloh etish, erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan, har tomonlama asosli va chuqur o'ylangan siyosat bizni inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy ta'siridan himoya qiladigan kuchli to'siq, aytish mumkinki, mustahkam va ishonchli himoya vositasini yaratildi.

Endilikda milliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilayotgan mahsulot va ko'rsatilayotgan xizmatlar eksporti hajmini yanada kengaytirish, jahon bozorlarida munosib, barqaror mavqe va o'rin egallash, iqtisodiy resurs va salohiyatimizdan to'liq foydalanish mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash, iqtisodiyotni har tomonlama diversifikatsiyalash jarayonlarini taqozo etadi. Hozirda nafaqat ishlab chiqarish, balki boshqaruv jarayonlarida ham innovatsion yondashuvni qo'llashning ahamiyati va zarurligi tobora kuchayib bormoqda. Ayniqsa, korporativ boshqaruv strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish, xo'jalik boshqaruvi qarorlarini qabul qilishda yangicha usul va vositalarning qo'llanishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim shartiga aylanib bormoqda.

Shu munosabat bilan "Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunni tanqidiy qayta ko'rib, yangi tahrirda ishlab chiqish va qabul qilish hamda unda korporativ boshqaruv va nazorat organlarining vakolatlari, huquqlari va javobgarligini yanada aniq belgilash lozim. Ushbu qonundagi aktsiyadorlik jamiyatlarining Kuzatuvchilar kengashlari, umumiy yig'ilishlari, taftish komissiyalarining roli va ahamiyatini oshirish,

minoritar, ya`ni qo`lida aktsiyasi kam bo`lgan aktsiyadorlarning kafolatlarini ko`proq ta`minlash, barcha aktsiyadorlar va bo`lajak investorlarning aktsiyadorlik kompaniyalari faoliyati to`g`risida axborot olish imkoniyatlarini kengaytirishni ko`zda tutish ayni muddao bo`lur edi.

Yangi texnik va tashkiliy-texnologik yechimlarning ishlab chiqilishi, ularni qo`llash bo`yicha qarorlarning qabul qilinishi, korporativ korxonalar innovatsion boshqaruvi asosiy tamoyillarining takomillashtirilishi takror ishlab chiqarish jarayonlarini yangilash hamda iqtisodiy o`sinh uchun qo`shimcha imkoniyat yaratadi.

Shu o`rinda ta`kidlash joizki, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, ya`ni ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma`naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o`z ichiga oluvchi jarayonning samaradorligiga korxonalarning innovatsion boshqaruv tizimi ham sezilarli ta`sir ko`rsatadi.

Ayniqsa, korxonalar ishlab chiqarish jarayonidan eskirgan asbob-uskunalarni chiqarish; ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash; mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish; ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va resurslarni tejash; sifatni boshqarish va sertifikatlash tizimini joriy etish; chiqitsiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish kabi modernizatsiyalashning asosiy yo`nalish va vositalarini amalga oshirish korporativ korxonalarda o`ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi. Bu esa, korporativ korxonalar faoliyatini innovatsion boshqarish sharoitida ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yo`nalishlari hamda ularni yanada takomillashtirish yo`llarini tadqiq etishga qaratilgan mazkur bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini ko`rsatadi.

Innovatsion faoliyat o`z ichiga ilmiy yangilik va ishlanmalarni yaratish, o`zlashtirish va keng joriy etish jarayonlarini olib, uning natijasida mahsulot, xizmat, ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish shakli, texnologiyalarning yangi

turlari yaratiladi yoki mavjudlari takomillashtiriladi. Innovatsiya jarayoni ishlab chiqarish va mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlash, bozorlarda o'z mavqeiga ega bo'lish va uni ushlab qolish, unumdorlikni, pirovardida ham korxona, ham yaxlit iqtisodiyot samaradorligini oshirishning asosiy va majburiy sharti hisoblanadi.

Innovatsiyani ijtimoiy hayotning har bir soha va yo'nalishiga nisbatan tatbiq etish mumkin bo'lib, bunda mazkur soha yoki yo'nalish faoliyatining mazmuni sifat jihatidan o'zgaradi va yangicha tavsif kasb etadi.

Korxonalar faoliyatiga innovatsiyalarni jadal tatbiq etish, ya'ni zamonaviy texnika va texnologiyalarning samarali usul va vositalarini qo'llash, eng avvalo mavjud ishlab chiqarishni har tomonlama modernizatsiyalashni zarur qilib qo'yadi. "Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal yangilash biz uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida izchil davom ettiriladi".

Modernizatsiyalash juda keng tushuncha bo'lib, uni ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga tatbiqan qo'llash mumkin. Bu eng avvalo modernizatsiyalash jarayonini turli jihatlariga ko'ra tasniflash orqali namoyon bo'ladi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yo'nalish va vositalari quyidagilar hisoblanadi: korxonalardan eskirgan asbob-uskunalarni chiqarish; ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash; mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish; ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va resurslarni tejash; sifatni boshqarish va sertifikatlash tizimini joriy etish; chiqitsiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish.

Mamlakatimizda texnik modernizatsiyalash bo'yicha tarmoq dasturlari ishlab chiqilib, ularda iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ishlab chiqarishning zamonaviy andozalariga o'tish, tejankor va samarali texnologiyalarni qo'llash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi. Jumladan, mamlakatimizda 2009-2014 yillarga mo'ljallangan ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirish bo'yicha muhim loyihalarni amalga oshirish choralari dasturi umumiy qiymati 42,51 mlrd. dollardan iborat 852 ta investitsiya loyihasini o'z ichiga oladi.

Respublikamizda investitsiya dasturi va texnik modernizatsiyalash bo'yicha tarmoq dasturlari doirasida 690 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilib, ularning 303 tasi muvaffaqiyatli yakunlandi. Buning natijasida 22 ta yirik ishlab chiqarish ob'ekti, jumladan, neft -gaz, kimyo, metallurgiya sanoatida 8 ta, mashinasozlik sanoatida 9 ta va qurilish industriyasida 5 ta ob'ekt foydalanishga topshirildi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, qo'lga kiritilayotgan yutuq va muvaffaqiyatlarning asosida iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonining o'rni ahamiyatli hisoblanadi. Shunga ko'ra, hozirda modernizatsiya jarayonining nazariy va metodologik asoslarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Eng avvalo, modernizatsiya atamasining mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, odatda uni texnika, texnologiyaga oid tushuncha deb qaraladi. Jumladan, iqtisodiyotga oid aksariyat lug'atlarda unga quyidagi mazmundagi ta'rif beriladi: «Modernizatsiya – ob'ektni yangilash, yaxshilash, takomillashtirish, uni yangi talablar va me'yorlarga, texnik shartlarga, sifat ko'rsatkichlariga muvofiqlashtirish. Asosan mashina, asbob-uskunalar, texnologik jarayonlar modernizatsiyalanadi»². Fikrimizcha, bu modernizatsiyaga tor ma'nodagi yondashuv bo'lib, bugungi kunda uning keng ma'nodagi mazmuni tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

² <http://ekonomic.doco.ru>.

Modernizatsiya – anʼanaviy jamiyatning ilgʻor, industrial jihatdan taraqqiy etgan jamiyatga aylanishini taʼminlovchi ijtimoiy-tarixiy jarayon. Modernizatsiyaning keng maʼnodagi mazmunini tushunishda iqtisodchi olim R.Nureev uning neoklassik va keynscha talqinlarini farqlaydi. Jumladan, neoklassiklar tomonidan modernizatsiyaga xususiy mulkchilik va demokratiyani mustahkamlash sifatida yondashilsa, keynschilar tomonidan, eng avvalo, xoʻjalikning asosiy tarmoqlarini qamrab oluvchi tarkibiy oʻzgarishlar sifatida tushuniladi. Dastlabki oʻringa texnik-iqtisodiy muammolar qoʻyiladi. Xoʻjalikning zamonaviy tarmoqlarining mavjud boʻlmasligi taraqqiyotning asosiy toʻsqinlik kuchi sifatida qabul qilinadi³.

Umuman olganda, modernizatsiya anʼanaviy jamiyatdan industrialashgan, yirik mashinalashgan ishlab chiqarishga hamda ijtimoiy jarayonlarni qonunlarga tayangan holda oqilona boshqarishga asoslangan jamiyatga oʻtish jarayonlarini namoyon etadi. Nazariyada modernizatsiya deganda «anʼanaviy tarzda yopiq jamiyat»ga qarama-qarshi oʻlaroq «zamonaviy ochiq tarzda jamiyat»ni shakllantirishga olib keluvchi industriyalashtirish, sekulyarlashtirish, urbanizatsiya, umumiy taʼlim, vakolatli siyosiy hokimiyat tizimlarining qaror topishi, hududiy va ijtimoiy safarbarlikning kuchayishi kabi jarayonlarning majmui tushuniladi.

Bundan koʻrinadiki, modernizatsiya juda keng tushuncha boʻlib, bugungi kunda uni jamiyat hayotining turli jabhalarini tubdan oʻzgartirish, yangilash, bu borada taraqqiyotni jahondagi mavjud ilgʻor andozalar tomon yoʻnaltirish va takomillashtirish jarayonlarining majmui sifatida ifodalash mumkin.


Bugungi kunda modernizatsiyalash jarayonlari mamlakatimiz hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab olgan. Ayniqsa, mazkur yoʻnalishlar orasida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash muhim oʻrin tutadi.

Zero, milliy iqtisodiyotning barqaror va samarali amal qilishini taʼminlash, uni jahonning rivojlangan mamlakatlari taraqqiyoti darajasiga olib chiqish, turli siyosiy va iqtisodiy oʻzgarishlar, jahon bozori konʼnkturasidagi tebranishlar,

³ Нуреев Р. Модернизация экономики: концепции и средства. 2005 йил.

inqiroz holatlariga nisbatan «chidamliligi», mustaqil rivojlana olish imkoniyat va salohiyatlari aynan iqtisodiyot turli darajalari ishlab chiqarish jarayonlaridagi tub islohotlar va ularning natijalariga bog'liqdir. Biroq, shu bilan birga ishlab chiqarishni modernizatsiyalash ijtimoiy-iqtisodiy hayotning boshqa sohalaridagi o'zgarishlarga chambarchas bog'liq. Ya'ni, barcha soha va jabhalar o'rtasida jadal isloh etish va modernizatsiyalash jarayonlarining amalga oshirilishida izchillik va mantiqiy muvozanatni ta'minlashga harakat qilish lozim. Shu o'rinda modernizatsiyalash jarayonining jamiyat har bir a'zosining ongliligi va mustaqilligini oshirishdagi o'rniga alohida e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz. Chunki, iqtisodiyot hamda mamlakat hayotining boshqa sohalarini modernizatsiyalash eng avvalo ushbu jarayonlarda ishtirok etuvchi, ularni amalga oshiruvchi va doimiy ravishda takomillashtirib boruvchi jamiyat a'zolari dunyoqarashi, tafakkurining o'zgarishi, ularning demokratik va tub islohot jarayonlaridagi faolligi oshishiga bevosita bog'liqdir.

1.2.1-rasm. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari va vositalari⁴



⁴ Манба: Саидова Г. Модернизация, техническое обновление и диверсификация производства, широкое внедрение инновационных технологий – необходимое условие выхода Узбекистана на новые рубежи на мировом рынке / «Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари» мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуманидаги тақдимот материаллари. – Т., ТДИУ, 2009 йил 5 май.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko'rinadiki, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish – zamon talabidir. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar qatorida munosib o'rin egallash, milliy mahsulotlarimizning jahon bozorlaridagi raqobatdoshligini ta'minlash, shu asosda eksport hajmini sezilarli darajada oshirish mavjud soha va tarmoqlarni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash asosida modernizatsiyalashni taqozo etadi. Ayni paytda, jahon bozoridagi ehtiyoj va talabning o'zgarishini hisobga olgan holda iqtisodiyotimiz tarkibiy tuzilmasini takomillashtirib borish, bu maqsadda yangi, zamonaviy tarmoqlarni barpo etish va jadal rivojlantirish lozim bo'ladi.

Shu o'rinda Prezidentimiz tomonidan bir necha bor ta'kidlangan muhim masalaga e'tiborni kuchaytirish lozim. Bu masala – mamlakatimizning qay bir hududi bo'lishidan, uning iqtisodiy resurslar va salohiyatga qanchalik boyligidan qat'iy nazar, ushbu hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, aholi farovonligi va turmush darajasini yuksaltirish maqsadida barcha kuchlarni safarbar etish lozim. Bugungi kunda mamlakatimizning hududlarida tarmoq Dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan yirik investitsion loyihalarga ko'ra, qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun har bir hudud rahbarlari, yetakchi mutaxassis va xodimlari, qolaversa, shu hududning barcha aholisi o'z kuch-quvvat va imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanishi lozim bo'ladi. Ayniqsa, hudud rahbarlari ushbu kuchlarni maqsadga muvofiq yo'naltirishlari, ularni o'zaro uyg'un holda jamiyat manfaatlari ostida birlashtirishlari lozim bo'ladi. Iqtisodiyotning yangidan-yangi tarmoqlari rivojlanib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi tobora kengayib borayotgan bir sharoitda ko'plab investitsion dasturlarni hududlar kesimida ham amalga oshirish va bu orqali ularning rivojlanishini ta'minlashga harakat qilish lozim.

Fan-texnika taraqqiyoti avj olgan hozirgi sharoitda, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlari ustidan nazorat qilish uchun kurash raqobatning asosiy usullaridan biriga aylanib bormoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqaruvchi korxonalar haridorlarni jalb qilish maqsadida uzoq muddat foydalaniladigan iste'molchilik tovarlariga kafolatli va kafolatdan keyingi xizmat

ko'rsatishni amalga oshirmoqdalar. Masalan, komp yuter ishlab chiqaruvchi firma, o'z mahsulotini sotibgina qolmasdan, balki uni o'rnatadi, korxona xodimlarini ulardan foydalanishga o'rgatadi, kafolatlangan muddatda va undan keyingi davrda ta'mir ishlarini bajaradi, texnikaviy xizmatni amalga oshiradi; maxsulotlari o'lchamlarini buyurtmachi ehtiyojlariga yaqinlashtiradi.

Raqobatning amal qilishi ma'lum shart-sharoitlar mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Bu shart-sharoitlar faqat bozor munosabatlari qaror topgan muhitda bo'lishi mumkin. Shunday ekan, bozor iqtisodiyotini yuzaga keltirish ayni vaqtda raqobatchilik muhitining shakllanishini bildiradi.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham uyushmalar, kontsernlar, korporatsiyalar, kompaniyalar shaklidagi monopoliyalar saqlanib qolgan bo'lib, ular ko'pincha tarmoq vazirliklari mavqe va vazifalariga ega bo'ladilar. Mahsulot va xom ashyolarning alohida turlarini limit va fond ko'rinishida taqsimlashning eskicha tizimi, shuningdek, biznesni amalga oshirish uchun ruxsat, litsenziya, sertifikatlar berish, kelishish kabi mavjud ma'muriy to'siqlar monopolistik tendentsiyalarga ko'proq imkon yaratadi.

Shunga ko'ra, O'zbekistonda samarali raqobat muhitini yaratish uchun quyidagilar bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi taqozo etiladi:

- a) iqtisodiyotda davlat monopolizmining har qanday namoyon bo'lishini maksimal darajada bartaraf etish;
- b) bozor sharoitida vujudga kelayotgan monopoliyalarning bozordagi o'z ustunlik mavqelarini suiste'mol qilish imkoniyatlarining oldini olish.

Raqobat mahsulot ishlab chiqaruvchilar va xizmatlar ko'rsatuvchi korxona, firma, muassasalar va boshqa iqtisodiyot sub'ektlarining qulayroq ishlab chiqarish va sotish sharoitlari uchun olib boriladigan kurash bo'lib bu yerdagi asosiy maqsad iste'molchining xoxishlarini optimal darajada qondirish orqali bozordagi mavqeini saqlab qolish va ko'zlagan foydaga erishishdir. Raqobat nafaqat iste'molchining nufuzi yuqori bo'lishini ta'minlaydi balki uning munosabatlari va u bergan bahoni firma kelajagi va taqdirini xal qiluvchi omil darajasiga olib chiqadi.

Xo'jalik sub'ektlarining raqobatbardoshligi bugungi kunda o'ta muhim nazariy va amaliy masala bo'lib harajatlarni kamaytirish, sifatni oshirish, assortimentni doimo yangilab turish, bozorda o'z mavqe'yini saqlashga intilish, iste'molchini yaxshi bilish va xoxish istaklarini o'z vaqtida anglab olishni taqozo etadi. Raqobatbardoshlikning garovi sifatida intellektual mulk mavjudligi, unga bo'lgan munosabat, uni ximoya qilish va undan foydalanishga bog'liqdir. Yangiliklardan xabardor bo'lish, ularni o'z vaqtida joriy qilish imkoniyatlari aynan yuqori malakaga ega bo'lgan mutaxassislar va olimlar tomonidan amalga oshiriladi. Intellektual salohiyat orqali firma yangi raqobatbardosh mahsulot yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bugungi kunda eng avvalo mahsulot yoki xizmatni yaratuvchisi va taqdim etuvchisi to'yingan bozor sharoitida harajatlarga, narx-navoga va sifatga alohida e'tiborini qaratishga majbur. Beshavqat va odil bozor xamma narsani o'z joyiga qo'yib saralash vazifasini bajaraveradi. Bozordagi raqobat kuchayishi marketing faoliyatida sifat va raqobatbardoshlik muammosini samarali xal etishga ko'maklashadi, ular esa o'z navbatida uning imkoniyatlariga ijobiy yoki salbiy ta'sir qo'rsatadilar.

Tovarning raqobatbardoshligi – tijorat muvofaqiyatining garovidir. Uning ma'nosi eng avvalo tovarni bozor sharoitlariga mos kelishi, iste'molchilarning mahsulotning nafaqat sifati, texnik xususiyatlari, iqtisodiy, estetik taraflari, balki tijorat taraflariga – narxiga, taqdim etish vaqtiga, sotish kanallari, servis va reklamasi xamda iste'molchi mahsulotni olganidan keyingi davrdagi qoniqish darajasi va qo'shimcha sarf- harajatlarda namoyon bo'ladi.

Raqobatbardoshlik aynan tovarning boshqa turdosh tovarlar bilan solishtirilganda iste'mol va qiymat xususiyatlarining kompleks xususiyatlari bo'lib bozordagi muvofaqiyatni ifodalaydi va bu yerda aynan ushbu tovarni boshqalardan ustunligini yoki ulardan qolishmasligini ifodalaydi. Tovar va xizmatlar albatta bizga ularni taqdim etuvchilar va tayyorlaganlar xaqida ma'lumot olish imkonini

beradilar va shular tufayli iste'molchilar korxonalar, tashkilotlar, firmalar va ular joylashgan mamlakat va shaharlar xaqida bilib oladilar.

Bozorga taqdim etilgan har qanday mahsulot haridorlar chig'irig'idan o'tadi. Har bir haridor o'ziga sifati va narxi bo'yicha eng ma'qul mahsulotni sotib oladi. Ko'pchilik esa odatda tovarlarning sarasiga qiziqadi va imkon qadar ularni sotib oladi. Haridor e'tibor va xurmati ishonchiga kirgan tovar raqobat bozorida o'z munosib o'rniga ega bo'lishi tabiiy. Demak mahsulotning raqobatbardoshligi faqat boshqa mahsulotlar bilan solishtirish orqali aniqlanishi mumkin. Raqobatbardoshlik nisbiy tushuncha bo'lib aniq bozor sharoitida va aniq sotish vaqt doirasida namoyon bo'ladi. Haridorlar xilma xilligi esa mahsulot va baho berishning ko'p qirrali bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu yerda iste'molchining aniq manfaatlari va imkoniyatlari hisobga olinishi muhimdir.

Mahsulot raqobatbardoshligini aniqlashda mahsulotning texnik darajasi va sifat darajasiga e'tibor qaratadilar. Mahsulot sifatini aniqlash uchun yuqori sifatli shu toifadagi boshqa mahsulotga barcha parametrlari bo'yicha solishtirib ko'rish zarur. Mahsulotni tayyorlash paytida ma'lum bir tartib qoidaga texnologiyaga rioya etilib unga maksimal darajada erishishga harakat qilinadi. Uning estetik - ergonomik (iste'molchiga har taraflama qulay bo'lishi) xususiyatlari, xavfsizligi aloxida e'tibor markazida bo'ladi. Iste'molchi tomonidan baholanishi raqobatbardoshlik texnik xususiyatlarda o'z aksini namoyon etmaydi.

Bugungi kunda tadbirkor shiddatli raqobat sharoitida asosiy e'tiborni hamkorlikga qaratmog'i lozim. Iste'molchini xoxish istaklarini bilish qanchalik muhim bo'lsa raqiblarni bilish va ular bilan hamkorlik yo'llarini izlab topish muvaffaqiyat garovidir.

1.3. Mamlakatimizda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash borasida davlatning sanoat yo'nalishidagi siyosati

Mamlakatimizda 2015 — 2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi.

Prezidentimizning 2015 yil 4 martdagi «2015 — 2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi Farmoni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlab chiqarishni yangilash va innovatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha uzluksiz jarayonning mantiqiy davomi bo'ldi.

Dastur tarkibiy o'zgarishlarni izchil ta'minlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, barqaror iqtisodiy o'sish lokomotivlari bo'lishga qodir yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlarini yanada rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning energiya sarfi, moddiy va mehnat xarajatlarini kamaytirish bo'yicha mavjud zaxiralardan yanada to'liq foydalanish, shuningdek, jahon bozorida talab barqaror bo'lgan raqobatbardosh tayyor tovarlar va yarim fabrikatlar ishlab chiqarishni kengaytirish, buning uchun xorijiy investitsiyalarni, jumladan, yetakchi xorijiy kompaniyalar bilan birgalikda qo'shma korxonalar tashkil etish orqali faol jalb qilish maqsadida qabul qilindi.

Xususan, ushbu Farmonga muvofiq, resurs tejaydigan bug'-gaz qurilmasi va quyosh energiyasidan foydalanish bo'yicha sinab ko'rilgan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish asosida elektr energetika sohasida faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarish quvvatlarini izchil modernizatsiya qilish va yangilarini tashkil etish ko'zda tutilmoqda.

Neft-gaz va neft-kimyo sanoatida tabiiy gaz va gaz kondensatini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va turini kengaytirish rejalashtirilmoqda. Kimyo sanoatida ishlab chiqarish

va eksportni murakkab mineral o'g'itlar, polimerlar, sintetik kauchuk, metanol va keng turdagi maishiy-kimyo tovarlari ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali diversifikatsiya qilish ko'zda tutilgan.

Umuman, geologiya, yoqilg'i-energetika kompleksi, kimyo, neft -kimyo va metallurgiya sanoatida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha 124 investitsiya loyihasi, shuningdek, xorijiy sarmoyadorlarni jalb etgan holda 48 istiqbolli investitsiya loyihasini amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Masalan, «O'zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi Buxoro neftni qayta ishlash zavodi quvvatlarini modernizatsiya va rekonstruktsiya qilish, «Muborak gazni qayta ishlash zavodi» unitar korxonasida gaz-kimyo majmuasini barpo etish, Ustyurt gaz-kimyo majmuasi xom ashyo bazasida uglevodorodlar pirolizi ishlab chiqaradigan yangi zavod, O'zbekiston — Xitoy gaz quvurining to'rtinchi tarmog'ini qurish, «O'zbekkimyomash» zavodining yirik va og'ir neft -gaz-kimyo uskunalari ishlab chiqaradigan quvvatlarini kengaytirish (2-bosqich), plastik mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, geologiya-qidiruv ishlari uchun yuqori texnologiyali uskunalar xarid qilish va boshqa loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilayotir.

Kimyo sanoatida «Samarqandkimyo» aksiyadorlik jamiyatida murakkab mineral o'g'itlar (NPK) va kaliy sul fati, «Navoiy azot» aksiyadorlik jamiyatida polivinilxlorid va metanol, «Angren» maxsus industrial zonasida avtomobil va qishloq xo'jaligi texnikasi shinalari, konveyer lentalari hamda boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish ko'zda tutilgan.

«O'zbekenergo» davlat aksiyadorlik kompaniyasi Dastur doirasida Navoiy issiqlik elektr stantsiyasini 450 MVt quvvatga ega ikkinchi bug'-gaz qurilmasini qurish orqali kengaytirish, Quyi-Bo'zsuv GESi kaskadi, Farhod GESi va «Toshkent GES» kaskadi unitar korxonasini modernizatsiya qilishni boshlaydi. «O'zbekko'mir» aksiyadorlik jamiyatida «Apartak» konini qurish hamda moliyaviy hisobga olish va hisobdorlik, xodimlar, tezkor hamda ishlab chiqarish-

texnologik faoliyatni boshqarishni komp yuterlashtirish bo'yicha integratsiyalashtirilgan kompleks tizimni joriy etish ko'zda tutilmoqda.

Olmalik va Navoiy kon-metallurgiya kombinalari ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha 41 loyihani amalga oshirishni rejalashtirmoqda. Sulfat kislotasi ishlab chiqarish zavodi qurish, Muruntov kar yeriga ishlov berish (5-navbati), qo'shimcha ishlab chiqarish ob'ektlarini modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash, Jizzax viloyatidagi tsement zavodini kengaytirish, Sherobod tumanida tsement zavodi qurish, mis simi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va boshqa loyihalar shular jumlasidandir.

Davlatimiz rahbarining ushbu Farmoniga muvofiq, mashinasozlik, avtomobil va elektr texnika sanoati, mahsulotlarni standartlashtirish sohasida ham keng ko'lamli o'zgarishlar belgilangan. Mazkur sohalarda jami 77 loyihani, shu jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali amalga oshirish rejalashtirilgan. Buning natijasida 2019 yilda texnologik yetakchi korxonalar bilan hamkorlikda import o'rnini bosadigan qishloq xo'jaligi texnikasi, yuk avtomobillari hamda butlovchi qismlar ishlab chiqarish bo'yicha yangi quvvatlar tashkil etish va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni kengaytirish ko'zda tutilgan.

Chunonchi, «O'zavtosanoat» aktsiyadorlik kompaniyasi tizimidagi «JV MAN AUTO Uzbekistan» va «UZAUTOTRAILER» qo'shma korxonalarida yuk avtotransporti vositalari kabinasi ishlab chiqarishni o'zlashtirish hamda ehtiyot qismlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, Jizzax akkumulyator zavodini texnologik modernizatsiya qilish, «Gentra», «Spark», «Cobalt», «T250» avtomobillari uchun alyuminiy va plastmassa detallar, tormoz tizimi elementlari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish rejalashtirilmoqda.

«O'zagrosanoatmashxolding» xolding kompaniyasi Toshkent va Chirchiq qishloq xo'jaligi texnikasi zavodlarini modernizatsiya qilish va texnologik qayta jihozlash orqali «Klaas», «Lemken» va boshqa yetakchi texnologik korxonalar bilan hamkorlikda zamonaviy traktorlar, don, yem-xashak o'rish va paxta terish mashinalari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, temir buyumlar, transmissiya va

reduktorlarga mexanik hamda termik ishlov berish quvvatlarini tashkil etishni rejalashtirmoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, 2019 yilga kelib, elektr texnika uskunalari tayyorlash bo'yicha yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni jadal rivojlantirish va o'zlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari uchun uskuna va ehtiyot qismlar, keng turdagi ekologik toza qurilish materiallari ishlab chiqarish bo'yicha yangi korxonalar tashkil etish kutilmoqda.

Xususan, «O'zeltexsanoat» aksiyadorlik kompaniyasi «Andijonkabel» aksiyadorlik jamiyatida yevropa texnologiyalari asosida avtomobil simlari ishlab chiqarishni o'zlashtirish, Motor zavodi maydonlarida integral mikrosxemalar, kamquvvatli fotoelektr stantsiyalari, turli quvvatli elektr dvigatellar va maishiy elektr texnika vositalari uchun kompressorlar ishlab chiqarishni tashkil etish, muzlatkich, maishiy gaz va kombinatsiyalangan plitalar ishlab chiqarishni kengaytirish, maishiy elektr va elektr texnika mahsulotlari ishlab chiqarish, marketing va logistika klasterini tashkil qilishni rejalashtirmoqda. Umuman olganda, kompaniya tomonidan umumiy qiymati 268,5 million dollarlik 39 yangi investitsiya loyihasini amalga oshirish mo'ljallanmoqda.

«O'zqurilishmateriallari» aksiyadorlik kompaniyasi, xususan, xorij investitsiyalarini jalb etgan holda 11 loyihani amalga oshirishni rejalashtirgan. «Qizilqumtsement» aksiyadorlik jamiyatida uzluksiz bazal t tolasi va armatura ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, ohak va temir-beton plitalar, «Uz Ouna» mas'uliyati cheklangan jamiyatida yirik o'lchamli oyna ishlab chiqarishni o'zlashtirish, Qoraqalpog'iston Respublikasida tsement zavodi qurish, Jizzax viloyatida tsement asosida pardozlash materiallari ishlab chiqarishni tashkil qilish ana shunday yirik loyihalar sirasidan.

Shuningdek, Dasturda mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash asosida ichki va jahon bozorida xaridorgir bo'lgan raqobatbardosh tayyor mahsulotlar hamda yarim fabrikatlar, jumladan, bo'yalgan ip, mato, ishlov berilgan teri, trikotaj, tikuvchilik, poyabzal va attorlik-charm buyumlari ishlab chiqarish

hisobidan to'qimachilik hamda charm-poyabzal sanoati tuzilmasini yanada yaxshilash ham ko'zda tutilgan.

Shunga muvofiq, «O'zbekengilsanoat» davlat-aktsiyadorlik kompaniyasi chet ellik yetakchi sheriklar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, yangilarini tashkil etish bo'yicha 58 loyiha, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb etgan holda, 21 istiqbolli loyihani amalga oshirishni rejalashtirmoqda. Ellikqal'a va Qo'ng'iro't paxta zavodlari, Buxoro viloyatining o'ijduvon, Jondor va Romitan tumanlarida qurilishi yakunlanmagan ob'ektlar negizida to'qimachilik komplekslari, «Indorama Qo'qon tekstil » xorijiy korxonasining to'rtinchi bosqichini tashkil etish va boshqalar shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, «O'zbekcharmpoyabzali» uyushmasi tashqi bozorda talab yuqori bo'lgan charm va zamonaviy poyabzal mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha 61 investitsiya loyihasini amalga oshiradi.

Farmon doirasida Oziq-ovqat sanoati korxonalari uyushmasi tomonidan zamonaviy sublimitlash, muzlatish va vakuumli qadoqlash texnologiyalari asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash hamda qayta ishlashga qaratilgan qiymati 410 million dollarlik 304 loyihani hayotga tatbiq etish rejalashtirilgan.

Jumladan, Surxondaryo viloyatidagi «Fayzi Ramz» fermer xo'jaligida mevasabzavotni qayta ishlash (sublimatsion quritish), «Jizzax» maxsus industrial zonasi hududida tez tayyorlanadigan mahsulotlar, Samarqand viloyatidagi «Siyob saxovati» xorijiy korxonasi mas'uliyati cheklangan jamiyatida go'shtni qayta ishlash, Toshkent viloyatidagi «Euro Food Trade» korxonasida baliq konservalari ishlab chiqarish va qo'ziqorinni chuqur qayta ishlash yo'lga qo'yiladi, shuningdek, faoliyat yuritmayotgan oziq-ovqat sanoati korxonalari modernizatsiya qilinadi (165 loyiha).

Prezidentimiz Farmonida jahondagi yetakchi kompaniyalarning litsenziya va patentlari asosida farmatsevtika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va

turini kengaytirish, mahalliy ishlanmalar hamda xom ashyo asosida tibbiyot preparatlari ishlab chiqarishni ko'paytirish rejalashtirilgan.

Shu munosabat bilan «O'zfarm sanoat» davlat-aktsiyadorlik kontserni 22 investitsiya loyihasini amalga oshirishni rejalashtirmoqda. «Pharm Product» mas'uliyati cheklangan jamiyatida bir marta ishlatiladigan tibbiyot buyumlari uchun metall ninalar, in'ektsiya eritmalari, quritilgan holda qadoqlangan dori vositalari, tabletkalar, kapsula va sashe-paketchalar uchun bo'sh ampulalar, kanal naychalar, «Soft inter medical» mas'uliyati cheklangan jamiyatida infuziya eritmalari, «Radiks» xususiy ilmiy-ishlab chiqarish korxonasida plazma o'rnini bosadigan eritmalar, dori vositalari ishlab chiqarish uchun o'simlik substansiyalari va boshqa dori vositalari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish shular jumlasidandir.

Shu bilan birga, Dastur doirasida zamonaviy texnologik talablarga javob bermaydigan eskirgan uskunalar va quvvatlarni foydalanishdan chiqarish va ularni zamonaviy hamda samarali ishlaydiganlari bilan almashtirishga qaratilgan qariyb 300 loyihani amalga oshirish ko'zda tutilgan (Farg'ona issiqlik elektr markazi va Navoiy issiqlik elektr stantsiyasidagi energobloklar, «Navoiy azot» aktsiyadorlik jamiyatida ammiak va kuchsiz azot kislotasi ishlab chiqarish quvvatlari, «Ammofos Maksam» aktsiyadorlik jamiyatida sul fat kislota ishlab chiqarish korxonasi, Toshkent va Chirchiq qishloq xo'jaligi texnikasi zavodlarining ishlab chiqarish quvvatlari va boshqalar).

Davlatimiz rahbarining Farmonida 2015 — 2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalarini hayotga tatbiq etish doirasida qiymati 30 million AQSh dollaridan ziyod va chet ellik investor ulushi kamida 50 foiz bo'lgan loyihalar bo'yicha ishlab chiqarish maydoni tashqarisida muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yo'lga qo'yish byudjet mablag'lari hamda ichki moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

Muxtasar aytganda, Prezidentimizning 2015 yil 4 martdagi «2015 — 2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi Farmonida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha umumiy qiymati 40 milliard 809 million dollarlik 846 investitsiya loyihasini amalga oshirish ko'zda tutilgan.

2015-2019 yillarda amalga oshiriladigan qiymati 19 milliard 640 million dollarlik 711 yangi loyihaaning sarmoyadorlari va moliyalashtirish manbalari belgilab olingan. Qiymati 21 milliard 169 million dollarlik 135 istiqbolli loyihaga esa xorijiy investitsiyalar va kreditlar jalb qilinadi.

Ushbu Dasturning hayotga tatbiq etilishi 2015 — 2019 yillarda yalpi ichki mahsulotni yiliga o'rtacha kamida 8 foiz, jumladan, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni 9 foiz, shu davr ichida ushbu ko'rsatkichni 1,5 barobar oshirish imkonini beradi. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida sanoat ulushi hozirgi 24 foizdan 2020 yilda 27 foizga yetadi. Mashinasozlik, neft -gaz, neft -kimyo, kimyo, to'qimachilik va oziq-ovqat kabi yuqori texnologiyali tarmoqlarni yanada jadal rivojlantirish, sanoatda ularning ulushini 2014 yildagi 62 foiz o'rniga 2020 yilda 67 foizga yetkazish kutilmoqda. Bu borada 100 ga yaqin yangi tovar guruhlar (qariyb 1000 xil mahsulot) ishlab chiqarish o'zlashtiriladi va 2020 yilga borib mamlakatimiz sanoatining yillik ishlab chiqarish hamda eksport salohiyati tegishli ravishda 18 trillion so'mga va 2 milliard dollarga oshiriladi.

II-bob. Namangan viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning hozirgi holati va uning iqtisodiy tahlili

2.1. Namangan viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish holati va uning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili

Mamlakatimizning ko'p asrlik tarixi va mustaqillik davridagi taraqqiyotida Namangan viloyati o'zining boy o'tmishi, madaniyati sanoati, qishloq xo'jaligi kabi tarmoqlarda erishilgan natijalari bilan alohida o'rin egallab kelgan.

Namangan viloyati sanoati asosan yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalaridan iborat. Sanoat korxonalarining asosiy qismi Namangan sanoat tugunida joylashgan.

Viloyatda iqtisodiy imkoniyat va salohiyat, zamonaviy infratuzilma mavjud bo'lib, ayni paytda uni yanada takomillashtirish zarurati ham yo'q emas, buning uchun dunyo tajribasida aniqlanganidek, investitsiya jalb qilish asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Hozirda shu maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni amaliyotda qo'llash borasida muayyan ishlarga kirishilgan.

Bunda avvalo mamlakatimiz Prezidentining 2015 yil 26 noyabrda Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlagan ma'ruzalari hamda Namangan viloyatining sanoat salohiyati va infratuzilmasini keskin rivojlantirish bo'yicha 2016-2019 yillarga mo'ljallangan maxsus dastur katta ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur dasturning ijrosi albatta viloyat sanoatining hozirgi holatini tahlil qilish, ushbu sanoat mahsulotlariga bo'lgan talab va taklifni o'rganish, uning natijalariga qarab rivojlanish yo'nalishlari va strategiyasini belgilash tabiiy va zarur jarayon hisoblanadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'z ma'ruzalarida: "... viloyatning yalpi hududiy mahsulotida sanoatning ulushi atigi 11 foizga yaqinni tashkil etayotgani, holbuki, mamlakatimiz miqyosida bu raqam ikki barobardan ziyod ko'p bo'lib, 25 foizdan iborat ekanligi, shuning uchun ham hozirgi kunda Namangan viloyatining

mamlakatimiz sanoatidagi ulushi juda past darajada – bor-yo'g'i 2,7 foiz bo'lib qolmoqda", - deya alohida ta'kidlab o'tdilar⁵.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida ayni shu maqsadda Namangan viloyatining sanoat salohiyati va infratuzilmasini keskin rivojlantirish bo'yicha 2016-2019 yillarga mo'ljallangan maxsus dasturning 5 ta asosiy yo'nalishiga alohida to'xtalib o'tdilar:

Birinchi yo'nalish – Namangan viloyatida yangi sanoat ob'ektlarini barpo etish;

Ikkinchi yo'nalish – viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash;

Uchinchi yo'nalish – mahalliy hokimiyat idoralari va tadbirkorlik tuzilmalarining sanoat salohiyatini rivojlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratish;


To'rtinchi yo'nalish – muhandislik kommunikatsiyalari va ishlab chiqarish infratuzilmalarini qurish;

Beshinchi yo'nalish – viloyatdagi foydali qazilma konlarini aniqlashga qaratilgan geologiya-qidiruv ishlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish va rivojlantirishga oid chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

2.1.1-rasmda keltirilgan har bir yo'nalishga to'htaladigan bo'lsak, birinchi yo'nalish, Namangan viloyatida yangi sanoat yub'ektlarini barpo etishga qaratilgan 16 ta yirik investitsiya loyihasini o'z ichiga olib, unda To'raqo'rg'on issiqlik elektr stantsiyasi loyihasini bunyod etish bo'lib, ikki bosqichda ya'ni, birinchi bosqichda 2017 yilda 450 megavatt quvvatiga ega bo'lgan eng zamonaviy bug'-gaz trubinasini, ikkinchi bosqichda 2020 yilda yana ana shundayhar biri 450 megavattidan bo'lgan 2 ta trubinani ishga tushirish mo'ljallangan.

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг Халқ депутатлари Наманган вилояти Кенгашининг навбатдан ташқари сессиясида сўзлаган маърузалари, 2015 йил 26 ноябрь.

Namangan viloyatining sanoat salohiyati va infratuzilmasini keskin rivojlantirish bo'yicha 2016-2019 yillarga mo'ljallangan maxsus dastur yo'nalishlari



2.1.1-rasm. Namangan viloyatining sanoat salohiyati va infratuzilmasini keskin rivojlantirish bo'yicha 2016-2019 yillarga mo'ljallangan maxsus dastur yo'nalishlari

Dasturning ikkinchi yo'nalishi faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash bo'yicha 25 ta investitsiya loyihasini qamrab oladi. Ularning orasida Namangan shahridagi "Elektr qurilmalari" Aktsiyadorlik jamiyati ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga qaratilgan loyihalar kiritilgan.

Uchinchi yo'nalish mahalliy hokimiyat idoralari va tadbirkorlik tuzilmalarining sanoat salohiyatini rivojlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan tashabbuslari asosida tuzilgan bo'lib, unda 177 ta loyiha o'rin olgan. Ularni orasida Uychi tumanida joriy investorlar bilan birgalikda tashkil etiladigan ipak trikotaj mahsulotlar korxonasi, Namangan shahridagi "Kamol medfarm" ma'suliyati cheklangan jamiyatida dori-darmon va in'ektsiya vositalarini ishlab

chiqishni yo'lga qo'yish, "FG tekstil grup" ma'suliyati cheklangan jamiyatida paxta xomashyosidan ip-kalava va tayor mahsulot ishlab chiqarish ko'zda tutilgan.

To'rtinchi yo'nalish muhandislik kommunikatsiyalari va ishlab chiqarish infratuzilmalarini qurishga doir loyihalardan tashkil topgan. Shular qatorida Pop tumanida elektrlashtirilgan "Angren-Pop" temir yo'li podstantsiyalarini elektr bilan ta'minlaydigan inshootlarni barpo etish ko'zda tutilgan.

Beshinchi yo'nalish foydali qazilma konlarini aniqlashga qaratilgan geologiya-qidiruv ishlarini bosqichma bosqich amalga oshirish va rivojlantirishga oid chora tadbirlar ham mazkur xujjatning uzviy bir qismini tashkil etadi. Bu borada foydali qazilma konlarini topish ehtimoli bo'lgan Pop, Chust, Kosonsoy, Yangiqo'rg'on, Chortoq tumanlarida geologiya-qidiruv ishlarini davom ettirish va ularning xududida yangi korxonalar qurish mo'ljallanmoqda.

Ushbu dastur doirasida kelgusi 4 yilda umumiy qiymati 5 milliard dollar bo'lgan 250 dan ziyod loyihani joriy etish va shuning hisobidan 16 mingdan ortiq ish o'rnini yaratish mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Namangan viloyatiga tashriflari jarayonida belgilangan topshiriq va ko'rsatmalarning ijrosini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan viloyat xokimining 2015 yil 8 oktyabrdagi maxsus chora-tadbirlar dasturida viloyatda sanoat ishlab chiqarishini va xizmatlar sohalarini istiqbolli rejalarini amalga oshirishda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash vazifasi qo'yilgan.

Ayni vaqtda, Namangan viloyatida 2015 yilning 1 dekabr holatiga Namangan viloyatida 1006 ta yengil sanoat korxonalari faoliyat yuritayotgan bo'lib, shundan 28 ta yirik va eksportyor yengil sanoat korxonalari "O'zbekengilsanoat" davlat aktsiyadorlik kompaniyasi tasarrufiga kiradi. Viloyat bo'yicha yengil sanoat korxonalari tomonidan o'tgan 2014 yil yakuni bilan 754,0 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, 65,1 mln.dollarlik mahsulotlar eksportga yo'naltirilgan. Bugungi kunda viloyat bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda yengil sanoat tarmog'ining ulushi 38,4 % ni tashkil etmoqda.

Shuningdek, ushbu 1006 ta yengil sanoat korxonalarining mulkchilik shakli bo'yicha 12 tasi aksionerlik jamiyati, 33 tasi qo'shma korxona, 4 tasi xorijiy korxona, 408 ta mas'uliyati cheklangan jamiyati hamda 549 tasi boshqa turdagi korxonalarni tashkil etadi.

Hukumatimiz tomonidan ishlab chiqarilgan Mahalliyashtirish Dasturi asosida yaratilayotgan sharoit va imtiyozlar, iqtisodiyotning jadal va barqaror rivojlanishini ta'minlash, uning tashqi omillariga bog'liqligini kamaytirish, ishlab chiqarish jarayonlariga yangi, samarali texnologiyalarni tadbqiq qilishni jadallashtirish, mahalliy xom-ashyo va ishlab chiqarish resurslaridan keng foydalanish, shuning asosida zamonaviy raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish, valyuta mablag'laridan tejamli va oqilona foydalanish, shuningdek, yangi ish joylarini yaratishga imkoniyat yaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 fevraldagi "2014-2016 yillarda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni yanada chuqurlashtirish to'g'risida"gi PQ-2120-sonli hamda 2015 yil 11 fevraldagi "2015-2019 yillarda tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturi to'g'risida"gi PQ-2298-sonli qarorlari asosida joriy yilda jami 9 ta xududiy tasarrufdagi korxonalarning 15 ta loyihasi bo'yicha jami 16,2 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan.

Xususan, iqtisodiyotni va uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilashni jadallashtirish va ko'lamlarini kengaytirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, yo'l-transport va kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish, faol investitsiya siyosatini amalga oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish, zarur ishbilarmonlik muhitini yaratish, aholining hayot darajasi va sifati izchil oshirilishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida hisobot davrida yalpi hududiy mahsulot hajmining (YaHM) o'sish sur'ati 11,2 foizga, sanoat ishlab chiqarish hajmi 12,5 foizga, qishloq xo'jaligi 8,1 foiz, kapital qo'yilmalar 21,7 foiz, qurilish ishlari 16,1

foiz, chakana savdo aylanmasi 17,1 foiz va pullik xizmat ko'rsatish hajmi 19,3 foizga o'sishi ta'minlangan. Yoki, YaHMDagi sanoatning ulushi 10,8 foizni (2014 yil yakunida 9,9%), qishloq xo'jaligi 36,8 foizni (34,8%), qurilish 7,0 foizni (7,5%), transport va aloqa 8,9 foizni (9,3%) va boshqalar 36,4 foizni (38,5%) tashkil etgan. Kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi esa 79,5 foizga (78,4%) to'g'ri kelgan.

Viloyatda inflyatsiyani qisqartirish hamda narx-navoni barqarorlashtirish bo'yicha 2015 yilga mo'ljallangan chora-tadbirlar Dasturi ishlab chiqilib, ijrosi tizimli amalga oshirilgan.

Viloyat aholisi uchun markazlashgan tartibda ajratilayotgan un va o'simlik yog'ini birja savdolariga o'z vaqtida qo'yish va sotib olingan mahsulotlarni savdo korxonalari tomonidan ayniqsa, qishloq va tog'li hududlarda yashovchi aholiga tizimli yetkazib berish yo'lga qo'yilgan.

Shunindek, aholi ta'minoti uchun nomarkazlashgan manbalar hisobidan ulgurji bazalar tomonidan chetdan ichki bozorni asosiy turdagi iste'mol mollari bilan to'ldirish maqsadida jami 1512,8 mln.so'mlik mahsulotlar olib kelindi, shundan 35,0 tonna un, 100,0 tonna o'simlik yog'i, 65,0 tonna makaron mahsuloti, 198,0 tonna shakar, 7,0 tonna qandolat mahsulotlari, 7,0 tonna yorma, 70,0 tonna xo'jalik sovuni, 73,0 tonna gurunch, 10,0 tonna choy, 7,0 tonna osh tuzi, 80,0 tonna piyoz va 100,0 tonna sabzi olib kelinib ichki bozorga yo'naltirildi.

Bundan tashqari tadbirkorlar tomonidan chetdan xarid qilayotgan nooziq va oziq-ovqat mahsulotlari bilan iste'mol bozorini to'ldirib kelinmoqda.

Viloyat aholisini arzon, sifatli meva-savbzavot va chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilash maqsadida agro sohada borilayotgan tadbirlar natijasida 2015 yil yakuni bilan 574,6 ming tonna sabzavot (prognozga nisbatan 100,8%), 207,3 ming tonna kartoshka (110,2%), 63,5 ming tonna poliz (111,5%), 182,0 ming tonna meva (115,2%), 98,6 ming tonna uzum (112,7%), chorvachilik mahsulotlaridan 99,8 ming tonna go'sht (o'tgan yilga nisbatan 107,0%), 498,7 ming tonna sut (107,4%), 217,4 mln.dona tuxum (127,6%), 521,0 tonna asal

(135,7%) va 1742,0 tonna baliq (152,0%) ishlab chiqarilib, belgilangan prognoz parametrlari ta'minlandi.

Shuningdek, aholini chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabni yanada qondirish maqsadida 2015 yil yakuni bilan 81 ta qoramolchilik fermer xo'jaligida 4611 bosh qoramol, 613,9 ming bosh parranda boqishga ixtisoslashgan 44 ta parrandachilik, 264,6 gektar sun'iy suv havzalar maydonida 58 ta baliqchilik xo'jaliklari, 643 ta fermer xo'jaliklari va dehqon xo'jaliklarida 12980 ta asalari oilalari tashkil etilib, shu orqali ichki iste'mol bozorini go'sht, tuxum, baliq, asal mahsulotlari bilan to'ldirilmoqda.

Bankdan tashqari pul aylanmasini qisqartirish maqsadida tijorat banklari tomonidan 2015 yilning yanvar-dekabr oylarida 11 ta bankomat, 81 ta infokioska, 7147 ta terminallar o'rnatilib, 703,9 ming ta plastik kartochkalar tarqatildi.

2016 yil 1 yanvar holatiga viloyatdagi 7 ta korxona o'z faoliyatini 8935,1 mln.so'm moliyaviy zarar bilan yakunladi.

Bular, Namangan shahridagi «Issiqlik-manbai» korxonasi 2499,3 mln.so'm (korxonada elektr va gaz ta'minotidagi uzilishlar hisobiga iste'molchilarga belgilangan issiqlik quvvati yetkazib berilmagan), «Nam teks» MChJ 1850,2 mln.so'm (korxonada 2013 yil yanvar-dekabr oylari davomida elektr energiyasida uzilishlar bo'lgan hisobiga korxona to'la quvvat bilan ishlamagan hamda korxonada modernizatsiya ishlari amalga oshirilgan), «Yo'lovchi tashish» DUAK 858,2 mln.so'm (avtoparkdan foydalanish darajasining pastligi, 200 avtobusdan 100-115 tasi faoliyat ko'rsatayotganligi. Amortizatsiya xarajatlarini o'sishi natijasida korxona zarar ko'rgan), Milliy bank Namangan viloyat bo'limi 1860,3 mln.so'm (berilgan kredit resurslarini vaqtida sundirilmay qolgani uchun rezervlar yaratilgan), Namangan tumanidagi «MRT Tekstil» MChJ 731,0 mln.so'm (xarajatlarni o'sishi, korxonani to'la quvvat bilan ishlamayotganligi sababli), Pop tumanidagi «Uzruberoid» MChJ 404,0 mln.so'm (korxona elektr energiyasi ta'minotidagi uzilishlar hisobiga to'la quvvat bilan ishlamagan) va Uychi tumanidagi «Kap-teks» QK 732,1 mln.so'm (korxona elektr energiyasi

ta'minotidagi uzilishlar sababli va aylanma mablag'lari yetishmayotganligi hamda to'la quvvat bilan ishlamagan) miqdorida zarar ko'rgan.

Viloyatda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, to'lov intizomi hamda pul-kredit siyosatini mustahkamlash borasida chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, 2015 yil yakuni bilan barcha manbalar hisobidan 442,1 mlrd.so'mlik kreditlar berilib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 124,2 foizga o'sdi. Ajratilgan kreditlarning 309,5 mlrd.so'mi yoki 70,0 foizi uzoq muddatli kreditlardir.

Viloyatda 2015 yil yanvar-dekabr oylari yakuni bilan faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari soni 2950 tani tashkil etib, ular tomonidan hisobot davrida 1629,6 mlrd.so'mlik (112,5%) sanoat mahsulotlari, 1013,9 mlrd. so'm (113,9%) xalq iste'moli mollari ishlab chiqarilib, prognoz (112,1 va 113,2%) parametrlari ta'minlandi.

Viloyatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida eng avvalo yuqori salmoqqa ega yengil sanoat, oziq-ovqat, mashinasozlik va qolgan sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirish dasturlari bo'yicha qator tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, hisobot davrida yengil sanoat tarmog'ida 115,7 foiz, oziq-ovqat sanoatida 101,4 foizni tashkil etgan holda umumiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori salmog'i yengil sanoat (39,0%) va oziq-ovqat sanoati (27,2%) tarmoqlari hissasiga to'g'ri keldi.

Hududlar bo'yicha ko'rilganda, Namangan tumani (125,8%), Norin (138,0%), Uychi (133,4%), Chortoq (124,1%) va Yangiqo'rg'on (121,0%) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari keskin ko'paygan bo'lsa, Kosonsoy (115,2%) va Chust (113,4%) tumanlarida o'rtacha o'sish tendentsiyalari kuzatildi.

Shu davrda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari 656,7 ming so'm (110,6%) va aholi jon boshiga xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish 408,6 ming.so'm (112,0%) ni tashkil etib, 2014 yilning shu davriga nisbatan mos holatda 128,2 ming so'm va 72,8 ming so'mga ko'p bo'ldi.

Shu bilan birga, yirik korxonalardan 3 tasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oldingi yilning shu davriga nisbatan 28,9 mlrd.so'mga pasaygan.

Bular, Namangan shahridagi "Koka Kola" QKda (57,1%) tabiiy gaz bosimi past bo'lganligi va ayrim uskuna va texnologiyalarni qayta jixozlash amalga oshirilganligi, "Nestle O'zbekiston" QKda (92,6%) qadoqlangan bolalar ovqati ishlab chiqarish kamayganligi (19,4 foiz) hamda "Rau Tom " QKning (45,8%) xorijiy investorlar tomonidan xom-ashyo mahsulotlarini yetkazib berilishida muammolar yuzaga kelganligi hisobiga mahsulot ishlab chiqarish hajmlari o'tgan yilga nisbatan kamaygan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosat majlisining 2013 yil 28 yanvardagi 8-sonli bayoni topshirig'iga asosan "Namangan viloyatini 2013-2015 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish Dasturi" ishlab chiqildi.

Dastur doirasida 2013-2015 yillarda 782 ta loyihalar (shundan 2013 yilda 393, 2014 yilda 372 ta, 2015 yilda 17 ta) ishga tushirish hisobiga 225,9 mln.dollarlik investitsiyalar o'zlashtirish va 18095 ta yangi ish o'rinlari barpo etildi.

Dastur asosida yirik loyihalardan "Norin Mechanical Plant" MChJda velosiped, "Aisha Home Textile" QKda momiq sochiq, "Choshgox" MChJ va Kap-teks MChJlarda kalava ip hamda qurilish materiallaridan "Namangan China Industry" QKda elektrod, "Leasing Bonus" MChJda shifer, mashinasozlik yo'nalishida "Ekstra Primer Bat" XKda akkumulyator, yengil sanoat yo'nalishida "Istiqlol Tekstil Dizayn" MChJda erkaklar uchun galstuk, "Chorkesar invest" XKda ayollar ro'mollari, charm poyabzali yo'nalishida "Darina Obuv" QK va "Diydor Lyuks Tekstil" MChJlarda ayollar poyabzali, "Nafis Charm" XKda erkaklar remenlari, "Yoshlik Poyabzal Savdo" MChJda bolalar poyabzali kabi mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Mahalliyashtirish Dasturi doirasida 2015 yilda jami 28 ta korxonada 51 ta loyihalar bo'yicha jami 171,2 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarish va 24,0 mln.dollar miqdorida chet el valyutasini iqtisod qilinishi belgilangan.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida korxonalar tomonidan 172,2 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, belgilangan rejaga nisbatan 100,6 foizga o'sish sur'ati ta'minlandi. Iqtisod qilingan valyuta miqdori 29,4 mln.dollarni (122,1%) tashkil etdi.

2015 yil davomida dasturga kirgan loyihalar tomonidan 6,0 ming dona po'lat va cho'yan zadvishkalar, 8,1 ming tonna to'g'ri chokli elektr payvandli metal trubalar, 3,5 ming dona sanitar-texnik buyumlar, 46,1 ming komplekt kuch mashqlari uchun sport inventarlari, 450,0 dona savdo rastalari uchun muzlatkichlar, 3,7 ming dona mebel furnituralari, yangi turdagi mahsulotlardan 17,0 ming dona yuqori bosimli avtomobil gaz ballonlari, 1235,0 komplekt yer osti suv gidranti, 196,1 ming komplekt avtomobillar uchun fara va fanarlar, 2,1 ming tonna karbotsel (KMTS), 1,1 ming tonna gumono ishqorli reagent (GShR) va 300 dona sito kabi mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlantirish yo'nalishida 2015 yil davomida umumiy qiymati 32,4 mlrd so'mlik 442 ta xizmat ko'rsatish ob'ektlarini tashkil etish belgilangan. 2015 yil yakun bilan jami 2043 ta ob'ektlarni tashkil etish uchun 36,1 mln dollardan ortiq mablag'lar yo'naltirilib, 4151 ta (2,7 marta ko'p) ortiq yangi ish o'rinlari tashkil etildi.

Shu jumladan, 715 ta chakana savdo, 90 ta umumiy ovqatlanish korxonasi, 28 ta guzar, 122 ta kiyim tikish va ta'mirlash, 269 ta sartaroshxona, 117 ta poyabzal tikish va ta'mirlash, 19 ta suratxona, 30 ta mebel yasash va ta'mirlash, 104 ta avtomobil va boshqa texnikalarni ta'mirlash ustaxonalari, 67 ta maishiy texnika ta'mirlash ustaxonalari va 482 ta boshqa turdagi xizmat ko'rsatish shoxobchalari foydalanishga topshirilgan.

Sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish samaradorligi kompleks ko'rsatkichlardan bo'lib, o'z ichiga mahsulot ishlab chiqarish, uni sotish hajmini, daromad olish, harajatlarni kamaytirish, rentabellik, foydani oshirish ko'rsatkichlarini oladi. Samarali ishlash o'z mohiyatiga ko'ra, mo'ljallangan foydani olish, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'la foydalanish, ishlab

chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirishni anglatadi. Korxona iqtisodiy samaradorligini oshirish barcha rahbar xodimlarning asosiy vazifalaridan biridir. Iqtisodiy samaradorlikni oshirish orqali korxona faoliyatining barcha sohalarida ijobiy yutuqlarga erishish mumkin. Iqtisodiyotning turli soha va korxonalarida hozirgi vaqtda boshqaruv faoliyatini zamonaviy boshqaruv darajasiga chiqarish, ular faoliyatida boshqaruvning zamonaviy tamoyillari va usullarini qo'llash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga harakat qilinmoqda. Mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi sanoat korxonalarida faoliyati samaradorligini oshirish borasida qator yutuqlarni qo'lga kiritildi.

Namangan viloyati rasmiy www.namangan.uz veb-saytida viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarida, shu jumladan, sanoat korxonalarida hamda kichik sanoat korxonalarida erishilgan natijalar e'lon qilib boriladi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, viloyatimizda sanoatni rivojlantirish, ayniqsa mahalliy xom ashyolardan foydalanib yangi turdagi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni keng yo'lga qo'yish jadal rivojlanmoqda. Bu borada sanoat sohasida tashkil etilayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining o'rnini ham alohida ta'kidlash zarur.

Namangan viloyatida sanoat ishlab chiqarishi yakunlarini quyidagi 2.1.1-jadval ma'lumotlari orqali ko'rishimiz mumkin.

2.1.1-jadval

Namangan viloyati sanoatining ishlab chiqarish yakunlari

(mln.so'm)

	Amaldagi narxlarda		2015 yil yanvar-dekabrni 2014 yil yanvar-dekabrga nisbatan foiz hisobida (solishtirma narxlarda)
	2015 yil yanvar-dekabr	2014 yil yanvar-dekabr	
Jami sanoat	1289310,0	1051773,0	114,9
shu jumladan:			
Yirik sanoat korxonalarida	688818,2	619148,0	104,4
Mikrofimalar	95170,6	85821,2	116,0
Kichik korxonalar	241431,6	175280,1	119,5
Yakka tartibdagi mehnat faoliyati bo'yicha	104514,8	84111,6	119,0
Yordamchi sanoat	85497,0	39126,0	208,2
Uy xo'jaligi	73877,8	48286,1	147,0

Manba: Viloyat iqtisodiyot boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Jadval ma'lumotlariga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, 2014 yilda viloyatda jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda 1051773,0 mln so'mni tashkil qilgan, 2015 yilda esa bu ko'rsatkich 1289310,0 mln so'mga yetgan yoki 14,9 foizga o'sishga erishilgan.

Shu jumladan, sanoat ishlab chiqarishida kichik biznes korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 2014 yilda 175280,1 mln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2015 yilda esa bu ko'rsatkich 241431,6 mln so'mga yetgan yoki 19,5 foizga ko'paygan.

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini tumanlar bo'yicha ko'rib chiqadigan bo'lsak, quyidagi jadval ma'lumotlaridan foydalanish mumkin (2.1.2-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, viloyatimiz tumanlarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2015 yilda 2014 yilga nisbatan barcha tumanlarda o'sish ko'rsatkichlariga erishilgan. Biroq, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ayrim tumanlarda kichik biznes sub'ektlarining ulushi kamaygan. Jumladan, Mingbuloq (67,9 foiz), Kosonsoy (95,0 foiz), To'raqo'rg'on (67,1 foiz), Uychi (88,4 foiz) va Uchqo'rg'on (89,4 foiz) tumanlarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik korxonalarining ulushi kamaygan. Bu borada Norin (169,6 foiz) tumani va Namangan (140,1 foiz) shahrida amalga oshirilayotgan ishlarni ijobiy baholash mumkin.

Shuningdek, viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining ortishi bilan bir qatorda, 2014 yilda sanoat mollari ishlab chiqarish hajmini kamaytirgan korxonalar ham mavjud bo'lib, buni quyidagi 2.1.3-jadvaldagi ma'lumot orqali ko'rishimiz mumkin.

2.1.2-jadval

Namangan viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari tahlili

	Jami			yirik korxonalar			mikrofirmalar			kichik korxonalar			yordamchi sanoat korxonalari			yakka tartibdagi mehnat faoliyati			Uy xo'jaligi		
	2014 yil	2015 yil	%	2014 yil	2015 yil	%	2014 yil	2015 yil	%	2014 yil	2015 yil	%	2014 yil	2015 yil	%	2014 yil	2015 yil	%	2014 yil	2015 yil	%
Namangan sh	474080,0	561089,3	108,4	265446,9	277476,9	92,6	46339,1	52184,8	116,9	68002,4	107542,5	140,1	14343,3	18773,4	124,7	51585,2	60146,6	111,7	28363,0	44965,0	152,3
Mingbuloq	22302,5	34724,2	136,4	17428,8	26939,6	132,2	697,7	868,4	130,2	1099,8	839,8	67,9	718,2	2664,3	353,5	1522,1	2041,7	128,5	835,8	1370,4	157,5
Kosonsoy	28124,7	31559,5	108,1	9996,8	10330,5	101,8	3590,7	2782,0	81,0	5871,2	6236,9	95,0	2406,2	3594,6	142,3	4247,2	5518,4	124,5	2012,6	3097,1	147,8
Namangan	84589,1	112119,6	141,5	38599,9	48091,5	154,1	20843,2	18231,1	91,5	12981,9	19650,6	125,9	8026,5	20255,4	240,5	2412,6	3184,5	126,5	1724,9	2706,5	150,8
Norin	28131,9	45544,6	151,0	21795,7	23447,4	100,9	1686,5	2070,8	128,4	900,7	15277,0	169,6	558,7	223,6	38,1	2085,0	2794,6	128,4	1105,3	1731,2	150,5
Pop	79245,9	94121,0	117,6	66552,1	64369,1	96,1	626,4	1076,3	179,7	2457,4	3118,7	110,1	4586,7	17196,9	357,3	2957,9	4567,6	147,9	2065,5	3792,4	176,4
To'raqo'rg'on	54187,0	61241,9	104,7	30639,8	37730,4	115,9	1286,8	1524,6	123,9	16149,8	12410,4	67,1	2183,9	4869,2	212,5	2061,2	2276,8	105,8	1865,5	2430,5	125,2
Uychi	68590,9	86067,1	117,9	33346,1	40553,2	119,5	3658,1	9733,1	278,2	26349,7	26851,8	88,4	915,5	3413,3	355,3	2329,6	2877,9	118,4	1991,9	2637,7	127,2
Uchqo'rg'on	128035,8	151795,2	110,4	106150,4	125529,4	111,8	854,8	1128,8	138,1	15591,2	16933,4	89,4	736,0	1924,3	249,1	3057,5	4208,6	131,9	1646,0	2070,7	120,9
Chortoq	13124,4	21092,7	155,7	0,0	0,0	0,0	2518,2	1252,9	68,8	1684,7	2226,0	105,4	2584,4	7813,7	288,1	3183,6	5257,7	158,2	3153,6	4542,5	138,4
Chust	46357,4	55209,1	110,2	18861,3	20440,8	104,7	2244,5	1903,5	88,7	18639,7	24052,2	111,9	1321,4	2503,4	180,5	3472,4	3956,3	109,2	1818,2	2353,0	124,3
Yangiqo'rg'on	25003,6	34745,8	122,4	10330,3	13909,5	106,2	1475,2	2414,3	171,2	5551,7	6292,3	103,8	745,2	2264,8	289,6	5197,3	7684,2	141,6	1703,8	2180,8	123,0
Viloyat bo'yicha	1051773,0	1289310,0	114,9	619148,0	688818,2	104,4	85821,2	95170,6	116,0	175280,1	241431,6	119,5	39126,0	85497,0	208,2	84111,6	104514,8	119,0	48286,1	73877,8	147,0

Manba: Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

2.1.3-jadval

**2015 yil yakuni bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini
kamaytirgan korxonalar to'g'risida ma'lumot**

№	Korxona nomi	Ishlab chiqarish hajmi solishtirma narxlarda (ming so'm)		O'sish sur`ati,%	Kamaytirish summasi (ming so'm)
		2015 yil yanvar-dekabr	2014 yil yanvar-dekabr		
Chust tumani					
	Jami:	1 ta korxona			-340095
1	Rau Tom	287385	627480	45,8	-340095
Namangan shahri					
	Jami:	2 ta korxona			-52302179
1	Nestle Uzbekistan QK	100414459	108438941	92,6	-8024482
2	Coca-cola QK	58933717	103211414	57,1	-44277697
Viloyat bo'yicha - jami		3 ta korxona			-52642274

Manba: Viloyat iqtisodiyot boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

2013 yil yakuni bo'yicha viloyatda jami 10 ta sanoat korxonasi mahsulot ishlab chiqarish hajmini kamaytirgan bo'lsa, 2014 yilda esa bu ko'rsatkichi 5 tani tashkil etgan. 2015 yilga kelib esa yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, viloyatda jami 3 ta sanoat korxonalari mahsulot ishlab chiqarish hajmini kamaytirgan yoki bu ko'rsatkich solishtirma narxlarida yuqoridagi korxonalarda 2015 yilda **52.642.274** mln so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi kamaygan.

Bunga asosiy sabablar sifatida "Koka Kola" QKda (57,1%) tabiiy gaz bosimi past bo'lganligi va ayrim uskuna va texnologiyalarni qayta jihozlash amalga oshirilganligi, "Nestle O'zbekiston" QKda (92,6%) qadoqlangan bolalar ovqati ishlab chiqarish kamayganligi (19,4 foiz) hamda "Rau Tom" QKning (45,8%) xorijiy investorlar tomonidan xom-ashyo mahsulotlarini yetkazib berilishida muammolar yuzaga kelganligi hisobiga mahsulot ishlab chiqarish hajmlari o'tgan yilga nisbatan kamayganligini keltirish mumkin.

Taqqoslash uchun 2014 yilda **16.652.231** mln.so'mlik sanoat mahsulotlari kam ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2013 yilda esa bu ko'rsatkich **24.060.400** mln.so'mni tashkil qilgan edi.

E'tiborlisi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini kamaytirgan korxonalar orasida o'tgan 2014 yilda ham Namangan shahridagi "Nam Teks" hamda Chust tumanidagi "Rau Tom" korxonalari mavjud edi. Mazkur korxonalar yildan yilga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini kamaytirib yubormoqdalar. Shu bois, ushbu korxonalar faoliyatini qayta ko'rib chiqish, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni chuqur tahlil qilish va bartaraf qilish choralarini ko'rish lozim bo'ladi, bu borada korxonalarni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash va modernizatsiya qilish talab etiladi.

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni tarmoqlar bo'yicha ko'rib chiqadigan bo'lsak, solishtirma narxlarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi quyidagi 2.2.4-jadvalda o'z aksini topgan.

2.1.4-jadval

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish (tarmoqlar bo'yicha)

solishtirma narxlarda

	Mahsulot ishlab chiqarish xajmi		O'tgan yilning shu davriga nisbatan, (foiz)	Farqi (Q:-)	Salmog'i, (foiz)
	2015 yil	2014 yil			
Yoqilg'i sanoati	48629964	15453392	314,7	33176572	4,0
Kora metallurgiya sanoati	2717160	2472439	109,9	244721	0,2
Kimyo sanoati	12912498	9322556	138,5	3589942	1,0
Mashinasozlik va metalni qayta ishlash sanoati	125299053	128243127	97,7	-2944074	10,1
Yog'och va yog'ochni qayta ishlab chiqarish sanoati	23706938	24980690	94,9	-1273752	1,9
Qurilish materiallari sanoati	41595856	43773820	95,0	-2177964	3,3
Oyna va forfor foyans sanoat	3566	3724	95,8	-158	0,0
Engil sanoat	477296329	409047460	116,7	68248869	38,4
Oziq-ovqat sanoati	374187521	328006605	114,1	46180916	30,1
Don mahsulotlari sanoati	124699846	109825967	113,5	14873879	10,0
Meditcina sanoati	257621	536808	48,0	-279187	0,0
Poligrafiya sanoati	5071083	5927113	85,6	-856030	0,4
Boshqalar	7326673	4690098	156,2	2636575	0,6
Viloyat bo'yicha jami:	1243704108	1082283799	114,9	161420309	100,0

Manba: Viloyat iqtisodiyot boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, viloyatda yoqilg'i sanoati, qora metallurgiya sanoati, kimyo sanoati, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati va don mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichlari birmuncha o'sishga erishilgan. Ayniqsa, bu borada yoqilg'i sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish keskin ortganligini ko'rish mumkin (o'sish ko'rsatkichi 314,7 foiz).

Biroq, shu bilan bir qatorda mashinasozlik va metalni qayta ishlash sanoati, yog'och va yog'ochni qayta ishlab chiqarish sanoati, qurilish materiallari sanoati, oyna va forfor foyans sanoati, meditsina sanoati va poligrafiya sanoatida solishtirma narxlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi kamaygan. Ayniqsa, bu borada meditsina sanoatida (48,0 foiz) juda past ko'rsatkichlarga erishilganligini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Shu o'rinda, xulosa sifatida ta'kidlash joizki, Namangan viloyati sanoati fan-texnika taraqqiyoti, boshqaruvi va tashkil etilishining takomillashuvi, kadrlar salohiyatining yuqori darajaga ko'tarilishi hamda xorijiy investitsiyalarning ko'plab jalb etilishi tufayli izchil rivojlanib bormoqda. Biroq, sanoat sohasida ajoyib yutuqlar bilan birga bir qator kamchiliklar va hal etilmagan muammolar ham mavjud. Bu muammolarning yechimini topish uchun viloyatda keng imkoniyatlar, ya'ni juda katta moddiy, mehnat, moliyaviy va intellektual resurslar mavjud. Ana shu resurslardan oqilona foydalanish asosida viloyatning juda qudratli va samarali sanoatini yanada yuqori darajaga ko'tarish mumkin.

2.2. “Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatining moliya-xo'jalik faoliyati iqtisodiy tahlili

“Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublikasi, Namangan viloyati, Pop tumani Pop temir yo'l bekatida joylashgan. “Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyati Namangan viloyati Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash boshqarmasining 1995 yil 1

mardagi № 36/0850- buyrug'i bilan davlat negizida tashkil etilgan hissadorlik jamiyatiga aylantirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 6 avgustdagi № 376-sonli, "O'zdonmahsulot" davlat aktsiyadorlik korporatsiyasini "O'zdonmahsulotlari aktsiyadorlik kompaniyasiga aylantirish to'g'risida"gi qarori, "Chustdonmahsulot" va "Popdonmahsulot" aktsiyadorlik jamiyatlarini qo'shilishi munosabati bilan viloyat davlat mulkini boshqarish boshqarmasi tomonidan 2003 yil 15 dekabrda № 512-sonli buyrug'ini 2-bandi quyidagicha tahrirda bayon etildi.

"Popdonmahsulot" ustav fondi – 50000,0 ming so'm; "Chustdonmahsulot" ustav jamg'armasi –15603,0ming so'm; Qo'shgan holda umumiy ustav fondi – 65603,0 ming so'm; Aktsiyalar soni – 65603 dona; Aktsiyalarning nominal qiymati – 1000 so'm; Shundan imtiyozli aktsiyalar 149 dona – 149 ming so'm;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 martdagi PK–29 sonli, 2005 yil 31 maydagi PK–90 sonli qarorlarini va Respublika davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasining 2005 yil 7 iyundagi 59 k-PO sonli buyrug'ini bajarish maqsadida 2005 yil 22 iyun kuni Namangan viloyat davlat mulkini boshqarish boshqarmasining 142/4 sonli buyrug'i chiqdi. 2005 yil 24 iyun kuni Pop tuman hokimligidan 499-sonli raqam bilan ro'yxatdan o'tkazildi. Jamiyat ustav jamg'armasi 99074 ming so'm bo'lib, 99074 dona aktsiyadan tashkil topdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi PF-4053 sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 17 dekabrda 316-sonli qaroriga muvofiq, jamiyat ustav fondini 400 ming AQSh dollari to'g'risidagi farmonini bajarib, aktsiyalar ulushi quyidagi 2.2.1-jadvalda keltirilganidek taqsimlandi.

2.2.1-jadval

“Popdonmahsulot” aktsiyadorlik jamiyati aktsiyalarini taqsimlanishi

TG №	Jamiyat ta'sisчилari	Ulushi, %	Aktsiyalar miqdori, dona	Aktsiyalar qiymati, ming so'm
1	“O'zdonmahsulot” aktsiyadorlik kompaniyasi	52,79	343130	343130000
2	Mulk qo'mitasi	40,03	260220	260220000
3	XIF va boshqalar	7,18	46501	46501000
4	Imtiyozli aktsiyalar	0,0	149	149000
Jami		100	650000	650000

Manba: “Popdonmahsulot” aktsiyadorlik jamiyati ma'lumotlari

Jamiyat asosan Pop va Chust tumanidagi shirkat, fermer va boshqa xo'jaliklarda don qabul qilib olib, tayyorlab qayta ishlab ikki turdagi oliy va birinchi navli un va omuxta yem hamda non mahsulotlari ishlab chiqaradi. Boshqa donni qayta ishlash korxonalaridan keltirilgan un va yorma mahsulotlarni qabul qilish hamda realizatsiya qilishga ixtisoslashtirilgan.

Jamiyatning 2015 yil 1 oktyabr holatiga:

Aylanma mablag'lari – 3391935 ming so'm;

Debitorlik qarzlari – 5444851 ming so'm;


Kreditorlik qarzlari – 7880954 ming so'm;

Korxona sof foydasi – 45228 ming so'm;

Rentabellik darajasi – 0,5 % ni tashkil etdi.

“Popdonmahsulot” aktsiyadorlik jamiyati Pop tumanidan 27900 tonna va Chust tumanidan 28900 tonna don qabul qilib olib, undan 25500 tonna un hamda 12500 tonna omuxta yem mahsulotlari ishlab chiqaradi. Tegirmon tsexi bir sutkada 90 tonna 1 yilda 27000 tonna un; omuxta yem bir sutkada 50 tonna 1 yilda 15000 tonna; non mahsulotlari suikada 3 tonna 1yilda 720 tonna mahsulot ishlab chiqarib, xalq iste'mol ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Jamiyatda 12500 tonna don saqllovchi temir sig'im mavjud.

“Popdonmahsulot” aktsiyadorlik jamiyatida mahsulot ishlab chiqarish bosqichlari va ishlab chiqarishni amalga oshirish mexanizmlari o’ziga xos bo’lib, uni 2.2.2-rasmdan ko’rish mumkin.



Manba: Muallif ishlanmasi

2.2.2-rasm. Mahsulot ishlab chiqarish jarayonlari bosqichlari

Jamiyat tarkibida Chust don qabul qilish filiali va Xalqabod don qabul qilish shaxobchasi mavjud. 2015 yilda Davlat resurslariga boshqoli don xarid qilish bo’yicha Pop Chust tumanlari shirkat, fermer va boshqa xo’jaliklari bilan 681 ta kontraktsiya shartnomalari tuzilgan. Umumiy don qabul qilish hajmi 56800 tonnani tashkil etadi. Shuningdek, Pop, Chust tumanlariga ekish uchun jamiyat tomonidan 5250 tonna urug’lik yetkazib berildi. Bundan tashqari kerakli bo’lgan xom ashyolar jamiyat omuxta yem mahsulotini to’yimligini oshirish maqsadida fermer xo’jaliklari va boshqa korxonalar bilan makka doni, arpa va ut uni xom ashyosi uchun qo’shimcha shartnomalar tuzilgan. Xarid qilish manbaalari pul o’tkazish yo’li bilan amalga oshiriladi.

2.2.3-jadval

Korxonada ishlab chiqariladigan mahsulot hajmining o’zgarishi

(tonna hisobidan)

№	Ko’rsatkichlar	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2015 yilni 2013 yilga nisbatan o’zgarishi (-, Q)
1	Un jami	25041	24953	25050	9
2	Omuxta yem	11790	11800	12000	210
3	Non	541	657	692	151

Manba: «Popdonmahsulotlari» aktsiyadorlik jamiyatining ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2.2.3-jadval ma`lumotlaridan ko`rinadiki, korxonaning mahsulot ishlab chiqarish xajmi yildan yilga ortib borganligini ko`rish mumkin. 2013 yil «Popdonmahsulotlari» aktsiyadorlik jamiyatida 25041 tonna 1-2 navli un ishlab chiqarilgan bo`lsa, 2015 yil 25050 tonna 1-2 navli un ishlab chiqarildi. 2014 yilda esa bu ko`rsatkich 24953 tonnani tashkil etgan. Bunga sabab aholi sonini ortib borishi hamda unga bo`lgan talabning oshishi bilan ham bog`liqdir. Aholi soni qancha ko`p bo`lsa un mahsulotlari ham o`z navbatida shunga yarasha ko`payishi lozim.

Korxonaning ikkinchi omuxta yem ishlab chiqarish bo`limida ham 2013 yil 11790 tonna, 2014 yil 11800 tonna, 2015 yil 12000 tonna omuxta yem ishlab chiqarilib turli xo`jalik va kichik biznes sub`ektlariga sotilgan. Korxona faoliyatini rivojlantirish bo`yicha mahsulotlarni diversifikatsiyalash asosida non va non mahsulotlari ishlab chiqarishni yo`lga qo`yilgan bo`lib, 2015 yilda 2013 yilga nisbatan 151 tonna ortib, 692 tonnaga yetdi. Ushbu ishlab chiqarilgan mahsulotlarning amaldagi narxlardagi ifodasini quyidagi 2.2.4-jadvalda ko`rish mumkin.

2.2.4 -jadval

Korxonada ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi(ming so`m hisobida)

№	Ko`rsatkichlar	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2015 yilning 2013 yilga nisbatan o`zgarishi (-, Q)
1	Solishtirma narhlarda	19760169	20895915	22391010	2630841
2	Amaldagi narhlarda	19770185	21555956	22500821	2730636
3	Iste`mol mollari	19629990	21991513	23831397	4201407

Manba: «Popdonmahsulotlari» aktsiyadorlik jamiyatining ma`lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Jadval ma`lumotlaridan ko`rinadiki, korxonaning ishlab chiqargan mahsulot hajmi qiymati ko`rsatkichlarda yildan yilga ortib borgan. Korxona ishlab chiqarishining solishtirma narhlardagi qiymati 2013 yilda 19 mlrd. 760 mln. 169

ming so'mlik mahsulot ishlab chiqargan bo'lsa, 2015 yilga kelib 2 mlrd. 630 mln. 841 ming so'm ko'p, ya'ni 22 mlrd. 391 mln. 10 ming so'mlik mahsulot ishlab chiqargan. Bu o'sish o'z o'zidan bo'lmagan albatta: 2013 yil korxona 19 mlrd. 629 mln. 990 ming so'mlik iste'mol mollari chiqargan bo'lsa 2015 yilda bu ko'rsatkich 23 mlrd. 831 mln. 397 ming so'mga yetgan.

Albatta bunday ijobiy natijalarga erishishda korxonada inson resurslaridan unumli foydalanganlik darajasini yuqoriligi bilan bir qatorda ishchilarni bor texnika va texnologiyalardan samarali foydalanishda deb qarash maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari «Popdonmahsulotlari» aktsiyadorlik jamiyatida ishchi va xizmatchilarni ham o'z vaqtida rag'batlantirilib turiladi, jumladan, korxonada kishi salomatligiga zarar keltiruvchi sharoitda ishlovchilarga qo'shimcha ish zahilari va korxonada bepul oziq ovqat beriladi.

Shuningdek, aktsiyadorlik jamiyati faoliyati samaradorligini oshirish uchun xarajatlarni kamaytirish maqsadida ko'plab yangiliklarni joriy etilgan. Barcha harajatlar-yonilg'i, elektr energiya, gaz, suv resurslarini belgilangan me'yoriy xyjlatlar asosida ishlab chiqarish sexlarida o'lchagich asbob-uskunalar o'rnatilgan bo'lib, korxona shu orqali faoliyat yurttadi.

2.2.5-jadval

«Popdonmahsulotlari» aktsiyadorlik jamiyatining asosiy vositalar xarakati(ming so'm)

№	Ko'rsatkichlar	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2015 yilning 2013 yilga nisbatano'zgarishi (-, Q)
1	Boshlang'ich qiymati	3782183	4399647	5885652	2103469
2	Eskirish summasi	467201	607070	692972	225771
3	Qoldiqqiymati	3314982	3792577	5192680	1877698

Manba: «Popdonmahsulotlari» aktsiyadorlik jamiyatining ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Korxonaning asosiy vositalar xolatini ko'rib chiqadigan bo'lsak 2013 yil 3 mlrd. 782 mln. 183 ming so'mlik jami asosiy vosita bo'lgan bo'lsa, 2014 yil 4

mlrd. 399 mln. 647 ming so'm 2015 yilda esa 5 mlrd. 885 mln. 652 ming so'm bo'lgan. 2015 yilda 2013 yilga nisbatan 2 mlrd. 103 mln. 469 ming so'm ko'p ko'rsatkichga erishilgan. Bunga sabab komissiya tomonidan asosiy vositalarning qayta baholanganligida vositalarning narxlari oshganligidir. Asosiy vositalarning eskirishi ya'ni amortizatsiya summasi 2015 yilda 692 mln. 972 ming so'm bo'lib, bu ko'rsatkich 2013 yilga nisbatan 225 mln. 771 ming so'mga oshgan.

Bizga ma'lumki har qanday korxonada ishlab kelinayotgan asosiy vositalar uchun ham amortizatsiya ajratmalari ajratiladi. Bino va inshootlar, qurilishlar uchun bularning qiymatini 5%ini, asbob uskuna, mashina jixozlar, yengil avtomobil, mebel , inventarlar, kompyuter texnikalari va shunga uxshash vositalar uchun 20%ini, xarakatdagi sotsav; avtomobil transporti, yuk avtomobillari va shu kabilardan yillik 15% xisobida amortizatsiya ajratmalari ajratilib, kelgusi faoliyat uchun jamg'arib boriladi. Bu ma'lumki amortizatsiya ajratmalari belgilangan normalar asosida mahsulotning tannarxiga kiritiladi.

Korxona o'z faoliyati davomida ko'plab iqtisodiy masalalar bo'yicha yangi turdagi asbob-uskunalar, asosiy vositalar va hokazolar olib kelindi. Jamiyatda 2014 yilda ishlab chiqarishni kengaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash, turlarni ko'paytirish maqsadida zamon talablariga mos sifatli un ishlab chiqarish uchun

Tegirmon sexiga qo'shimcha 50 tonna bug'doy mahsulotini qayta ishlab chiqarish quvvatiga ega dastgohlarni o'rnatish;

- chorva hayvonlari uchun qishki va yozgi bino qurish;
- ma'muriy binolarni ta'mirlash;
- chorva hayvonlarini sotib olish.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida 2014 yil yakunlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan mahsulot hajmining jami 115 foizga bajarildi, iste'mol mollarining jami 109 foizga bajarishga erishildi, mahsulot sotishdan sof tushum 163 foizga bajarildi, sof foydasi esa 164 foizga bajarildi.

“Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatida ishlovchilar soni 2015 yil 1 oktyabr holatiga 270 kishi bo’lib, shundan asosiy faoliyatda mahsulot ishlab chiqarish uchun sarf bo’ladigan ishchi kuchi 260 kishini tashkil etadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ishlab chiqarishda bevosita va bilvosita ishtirok etishiga qarab ish haqi to’lash xarajatlari har xil usullar bilan taqsimlanadi. Jumladan, ishlab chiqarish tsexi xodimlari va unga xizmat qiluvchi ishchilarga hisoblangan ish haqi xarajatlari har bir ishlab chiqarish tsexi bo’yicha ishlab chiqarilgan mahsulot turi va navlarining miqdoriga nisbatan mutanosib taqsimlanadi.

2.2.6-jadval

“Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatida ishlovchilarning bo’limlar bo’yicha taqsimoti

TG’№	Bo’limning nomi	Soni	TG’№	Bo’limning nomi	Soni
1	Xizmatchilar	43	7	Soqqchilar	23
2	Tegirmon tsexida	10	8	Non tsexi	20
3	Elevator tsexida	10	9	Omuxta yem tsexi	9
4	Yukchilar	22	10	Xalqabod don qabul qilish	8
5	Mexanika bo’limi	10	11	Chust don qabul qilish filiali	27
6	Nurchilar	8	12	Boshqalar	48

Manba: “Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyati ma’lumotlari

Umuman olganda, donni qabul qilishdan boshlab, to mahsulotni sotish bosqichigacha ishlab chiqarish jarayonini tashkil qiladi. Ishlab chiqarish jarayonida band bo’lgan ishchilar bir necha xil vazifalarni bajaradi. Masalan, donni qabul qilish va birlamchi ishlov berishda band bo’lgan ishchilar, donni saqlash jarayonida band bo’lgan ishchilar, un-yorma ishlab chiqarishdagi ishchilar, omuxta yem ishlab chiqarishdagi ishchilar, yordamchi ishlab chiqarish ishchilari hamda ishlab chiqarishga taalluqli boshqa ishchi va xodimlar. Bundan tashqari bir ishchini o’zi bir vaqtda bir necha mahsulot turi va navini ishlab chiqarishda ishtirok etishi mumkin.

Jamiyatning 2015 yilda ishchi xodimlarining ish haqi fondi 2514720 ming so'm. O'rtacha bir ishlovchining bir oylik ish haqi 505420 so'mni tashkil etdi. 2015 yilda ishchi xodimlarni malakasini oshirish maqsadida shartnoma tuzilib 15 nafar ishchi xodimni malaka oshirish kurslarida o'qitildi. Ushbu tadbirga ajratilgan mablag' hajmi 30 mln so'mni tashkil etdi.

“Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xaridorgirligini oshirish borasida ham bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda jumladan, mahsulot turlarini ko'paytirish, uning sifatini oshirish va zamon talablari asosida ishlab chiqarish shular jumlasidandir.

Korxonalarining moliyaviy xolatini yaxshilash uchun korxona, kapitalini tarkibini yaxshilash va tahlil qilish katta ahamiyatga egadir. Korxona kapitali tarkibini ifodalovchi ko'rsatkichlar bo'lib quydagilar hisoblanadi.

2.2.7-jadval

“Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyati kapitalining tarkibini ifodalovchi ko'rsatkichlar dinamikasi

(ming so'm)

TG№	Ko'rsatkichlar	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2015 yilning 2013 yilga nisbatan o'zgarishi(Q,-)
1.	Xususiy kapital	1816091	18911732	2059269	243178
3	Jami balans	38072495	38315673	45013586	6941091
4	Uzoq muddatli qarzga olingan kapital	650876	802520	895519	244643
5	Uzoq muddatli aktivlar	4296613	5174608	6124796	1828156

Manba: “Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyati ma'lumotlari

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, “Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatining xususiy kapitali 2015 yilda 2013 yilga nisbatan 243 mln. 178 ming so'mga oshib, 2 mlrd. 59 mln. 269 ming so'mni tashkil etdi. 2015 yilda jami balans qiymati 45 mlrd. 13 mln. 586 ming so'mga teng bo'lib, o'tgan 2013 yilga nisbatan 6 mlrd. 941 mln. 91 ming so'mga ortganligini ko'rish mumkin. Xuddi shu kabi jadval ma'lumotlaridan jamiyatning boshqa uzoq muddatli qarzga olingan kapital va uzoq muddatli aktivlar hajmi ham o'sganligini ko'rish mumkin.

1. Mustaqilik koeffitsienti. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun xususiy kapital summasi (passiv balansni I bo'lim jami) balansni jami summasiga bo'linadi.

2. Moliyaviy barqarorlik koeffitsienti. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun: xususiy kapital plus uzoq muddatli qarzga olingan kapital summasini balansni jami sumasiga bo'linadi.

3. Mablag'lar bilan ta'minlanish koeffitsienti. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun xususiy kapitalning qarzga olingan kapital summasiga bo'linadi.

4. Investitsiya koeffitsient. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun xususiy kapital summasini uzoq muddatli aktivlar (balansni I aktiv bo'limi jamiga) bo'linadi.

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan va koeffitsientlarni aniqlash usullaridan foydalangan holda "Popdonmahsulotlari" aksiyadorlik jamiyatining iqtisodiy holatiga baho berish mumkin.

2.2.8-jadval

"Popdonmahsulotlari" aksiyadorlik jamiyatida kapitali tarkibining tahlili.

(ming so'm)

N ^o	Ko'rsatkichlar	2013 yil	2015 yil	O'zgarishi
1	Mustaqilik koeffitsienti.	$\frac{1816091}{38072495} = 0.048$	$\frac{2059269}{45013586} = 0.046$	-0,02
2	Moliyaviy barqarorlik koeffitsienti	$\frac{2466967}{38072495} = 0.65$	$\frac{2954788}{45013586} = 0.66$	0,01
3	Mablag' bilan ta'minlanish koeffitsienti.	$\frac{1816091}{650876} = 2.8$	$\frac{2059269}{895519} = 2.3$	-0,5
4	Investitsiya koeffitsienti	$\frac{1816091}{4296613} = 0.42$	$\frac{2059269}{6124796} = 0.34$	-0,08

Manba: "Popdonmahsulotlari" aksiyadorlik jamiyati ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinayaptiki, jamiyatning moliyaviy barqarorlik koeffitsienti kapitalining 2015 yilda 2013 yilga nisbatan olganda 0,01 birlikka o'sgan bo'lsa, qolgan mustaqilik koeffitsienti 0,02, mablag' bilan ta'minlanish koeffitsienti 0,5 va investitsiya koeffitsienti 0,08 birlikka kamayganligini ko'rish

mumkin. Ammo koeffitsientlarini bunday miqdorda o'zgarishi jamiyat faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi. Shunday bo'lsada jamiyat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash uchun zarur chora tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Endi "Popdonmahsulotlari" aktsiyadorlik jamiyatining ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xaridorgirligini oshirish borasida amalga oshirayotgan ishlardan birini tahlilini ko'rib chiqaylik (2.2.9-jadval).

2.2.9-jadval

“Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxi tahlili

(ming so'm)

TG' №	Iqtisodiy ko'rsatkichlar	Yillar			2015 yilda 2013 y.ga nisbatan, % da
		2013	2014	2015	
1	Ishlab chiqarilgan mahsulot xajmi, joriy narxda	22391940	24580222	31537231	140,8
2.	Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi	20624884	21505425	28635125	138,8
3.	Bir birlik mahsulot tannarxi, 1q:2q	1,1	1,14	1.1	-

Manba: "Popdonmahsulotlari" aktsiyadorlik jamiyatining 2012-2014 yillardagi hisobotlaridan olingan

2.2.9-jadval ma'lumotlariga ko'ra, "Popdonmahsulotlari" aktsiyadorlik jamiyatida ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi 2015 yilda 2013 yilga nisbatan 38,8 foizga oshgan bo'lsa-da, bir birlik mahsulot tannarxi o'zgarishsiz qolgan. Ammo 2014 yilga nisbatan olganda 0,04 foizga kamaytirishga erishildi.

Ushbu ijobiy natijaga erishish Prezidentimiz tomonidan mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun "Ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxini pasaytirish bo'yicha dastur"da belgilangan quyidagi kompleks chora-tadbirlarni jumladan,

- korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish;

- qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarining raqobatdoshligini oshirish;

- elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste'molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish choralari amalga oshirish kabi belgilangan ustuvor vazifalarni amaliyotga tadbiq etish deb qarash maqsadga muvofiqdir.

Korxona tomonidan olib borilgan ijobiy ishlar jumladan, mamlakatimizda oziq ovqat mahsulotlari bilan aholini ta'minlash va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlarda keltirilgan vazifalarni izchillik bilan amalga oshirish natijasida bir qator ijobiy natijalarga erishildi (2.2.10-jadval).

2.2.10-jadval

“Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyati faoliyatining 2013-2015 yillardagi ayrim moliyaviy natijalar ko'rsatkichi tahlili

(ming so'm hisobida)

№	Ko'rsatkichlar	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2015 yil 2013 y.ga nisbatan, (Q,_)
1.	Ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot	19770185	21555956	25133860	5363675
2.	Tayyor mahsulot sotishdan tushum	22391940	24580222	31537231	9145291
3.	Mahsulot tannarxi	20624884	21505425	28635125	8010241

Manba: “Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatidan olingan ma'lumotlar

“Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyati 2013-2015 yillarda quyidagi moliyaviy natijalarga erishgan:

- korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot hajmi, 2013 yilda 19 mlrd. 770 mln. 185 ming so'mni tashkil etgan, 2014 yilda 2013 yilga nisbatan – 9,0 foiz va 2015 yilda 2014 yilga nisbatan esa – 16,6 foizga ortirishga erishib, 25 mlrd. 133 mln. 860 ming so'mga yetkazilgan;

- tayyor mahsulot sotishdan tushum 2013 yilda esa 22 mlrd. 391 mln. 940 ming so'mni tashkil etib, 2015 yilda 31 mlrd. 537 mln. 231 ming so'mga yetkazilganligini ko'rsatib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 44,0 foizga ko'paygan;

- sotilgan mahsulot tannarxi esa 2013 yilda oldingi yilga nisbatan 5,4 foizga, 2014 yilda 4,3 foiz va nihoyat 2015 yilda esa 33,2 foizga o'zgargan.

Ushbu mavzu doirasida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda “Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatining o’rnini bilish maqsadida uning iqtisodiy salohiyatini baholashni lozim deb topdim. Chunki, “Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatining iqtisodiy salohiyati qanchalik yuqori bo’lsa, jamiyatning salohiyati ham yuqori bo’lishi bois bu borada asosiy korxona hisobotlaridan olingan statistik ma’lumotlardan foydalangan holda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun bir qator iqtisodiy nisbiy ko’rsatkichlarni hisoblash natijalarini aniqlash va tahlil etish talab etiladi (2.2.11-jadval).

2.2.11-jadval

“Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatida asosiy vositalar rentabelligi tahlili

(ming so’m)

№	Ko’rsatkichlar	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2015 yilning 2013 yilga nisbatan o’zgarishi, %
1.	Asosiy vositalarning yillik o’rtacha qiymati	4122564	4399647	5885652	142,8
2.	Sof foyda	61333	84621	107250	175,0
3.	Asosiy vositalar rentabelligi %	1,5	1,9	1,8	0,3

Manba: “Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyati ma’lumotlaridan olingan.

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga ko’ra, jamiyat asosiy vositalari qiymati joriy yilda 2013 yilga nisbatan 42,8 foizga oshib, 5 mlrd. 885 mln. 652 ming so’mga yetgan. Sof foydasi 2015 yilda 2013 yilga nisbatan 75,0 foizga oshib, 107 mln. 250 ming so’mga yetgan. Jamiyatda asosiy vositalar rentabelligi 2015 yilda 2013 yilga nisbatan 0,3 foizga o’sgan bo’lib, bu o’z navbatida sof foydaning o’sishiga nisbatan asosiy vositalarning yillik o’rtacha qiymati ko’proq o’sganligi bu esa yangi texnika va texnologiyalar bilan korxonani jihozlashda davom etayotganligidan dalolat beradi.

2.2.12-jadval

“Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatida xarajatlar rentabelligi tahlili

TG’№	Ko’rsatkichlar	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2015 yilning 2013 yilga nisbatan o’zgarishi, %
1.	Jami xarajatlarning	3225648	3459871	3803354	118,0

	yillik o'rtacha qiymati				
2.	Sof foyda	61333	84621	107250	175,0
3.	Xarajatlar rentabelligi %	0,2	2,5	2,8	2,6

Manba: "Popdonmahsulotlari" aksiyadorlik jamiyati ma'lumotlaridan olingan

"Popdonmahsulotlari" aksiyadorlik jamiyatida yillik xarajatlar miqdori 2015 yilda 2013 yilga nisbatan 18,0 foizga oshgan bo'lib, 3 mlrd. 803 mln. 354 ming so'mga yetgan. Bunda xarajatlar jumladan, davr xarajatlari – 743 mln 174 ming so'm, ma'muriy xarajatlar – 312 mln. 36 ming so'm va boshqa xarajatlar miqdori – 431 mln. 137 ming so'mga kamaytirilib, xarajatlar rentabelligi 2015 yilda 2013 yilga nisbatan 2,6 foizga oshgan.

Xulosa qilib aytganda korxonani moliyaviy xolatini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri bo'lib, ularning moliyaviy barqarorlik darajalari xisoblanadi. Korxonalarni to'lov qobiliyati-bu ularni o'z aktivlari xisobiga qisqa muddatli va uzoq muddatli majburiyatlarini o'z muddatida bajarishga tushuniladi. Agar korxonaning umumiy aktivlari ularni tashqi qarzalaridan ko'p bo'lsa bunday korxonalarni to'lov qobiliyatiga ega korxonalar deyiladi.

III-bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va ularning raqobatbardoshligini oshirish yo'llari

3.1. Sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va ularning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari

Rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy strategiyasi uzoq vaqtga mo'ljallangan fundamental maqsadlarni o'rta qo'yish bilan bir qatorda, bu maqsadlarga erishish vositalari, yo'llarini belgilashni ham o'z ichiga oladi. Bular orasida ishlab chiqarish samaradorligini to'xtovsiz oshirib borish asosiy o'rinda turadi.

O'zbekiston davlatining qudratini mustahkamlash, aholining moddiy va ma'naviy ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish, kelajakda esa – ularni mo'l-ko'l yaratish, iqtisodiy va ilmiy-texnika sohasida eng rivojlangan davlatlar qatoridan joy olish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga bevosita bog'liqdir.

Sanoat ishlab chiqarishini erkinlashtirish va bu tarmoqda islohotlarni chuqurlashtirish samaradorlikni oshirishning asosiy yo'nalishi hisoblanadi.

Sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishning hal qiluvchi yo'llaridan yana biri fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishdir. Texnik va texnologik omil mehnat unumdorligini o'stirishning kamida uchdan ikki qismini ta'minlaydi.

Ma'lumki, iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlarida texnika taraqqiyotining xarakteri va mazmuni o'z xususiyatlariga ega bo'ladi. Masalan, bozor iqtisodiyotiga o'tish natijasida fan-texnika taraqqiyoti undagi miqdoriy o'zgarishlargagina emas, balki ko'proq sifat o'zgarishlariga qaratiladi. Umuman, samaradorlik iqtisodiyotdagi sifat o'zgarishlari bilan bog'liqdir, bu talab fan-texnika taraqqiyotiga ham to'liq joriy etiladi.

Sanoat ishlab chiqarishi ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini yuqori darajaga ko'tarishda inson omilining roli beqiyosdir. Insonlarning tashabbusi, kuch-g'ayrati,

jonli ijodiyoti har qanday taraqqiyotning kudratli kuchi va eng muhim manbai hisoblanadi. Shu sababli ham insonni jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi deb aytadilar. U barcha yangiliklarni, shu jumladan, yangi, ilg'or texnika-texnologiyalarni yaratadi, ishlab chiqarishni oqilona tashkil etadi, ilmiy va amaliy kashfiyotlar qiladi. Barcha ishlab chiqarish vositalari inson mehnati bilan harakatga keltiriladi, foydali narsalar hosil qilinadi. Biroq inson faqat asosiy ishlab chiqaruvchi kuchgina emas, shu bilan birga ishlab chiqarish va boshqa ijtimoiy munosabatlarning sub`ekti hamdir. Odamlar faoliyati shu munosabatlar orqali ruyobga chiqadi. Bu faoliyat yo`nalishi va natijalari xodimning o`z faoliyatida qanday o`y-fikrlarga, tasavvurlarga, maqsadlarga, hayotiy yo`l-yo`riqlarga, muddaolarga va psixologik e`tiqodlarga amal qilishiga bog`liq. Shu sababli inson omilining mohiyati, ahamiyati va mazmuni tahlil etilganda gap faqat inson haqidagina emas, balki avvalo inson yashab, mehnat qilayotgan ijtimoiy munosabatlarning butun tizimi bilan belgilanuvchi ijtimoiy sifatlar, faoliyatni rag`batlantiruvchi omillar va muddaolar haqida borishi kerak.

Mamlakatimizda o'tgan davrlarda sanoatni rivojlantirishning asosiy omillari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- maqsadli dasturlarni amalga oshirish;
- infratuzilmani shakllantirish (suv, gaz, elektr energiyasi, transport va boshqalar);
- engil sanoat sohasida yangi korxonalar tashkil etish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish;
- charm xomashyosini qayta ishlash sohasida yangi korxonalar tashkil etish va yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish;
- qishloq ho'jalik mahsulotlarini qayta ishlash sohasida yangi korxonalar tashkil etish va bozorni mahalliy mahsulotlar bilan ta'minlash;
- xalq iste'moli tovarlarini ishlab chiqarish va ular bilan bozorni to'la ta'minlash;
- qurilish materiallari industriyasini rivojlantirish;

- sanoatni rivojlantirishda bank kreditlari ta'sirchanligini oshirish;
- sanoatni rivojlantirishda qo'shma korxonalarining ulushini oshirish;
- mahalliy xom ashyoni qayta ishlash;
- mahalliy lashtirish dasturi va xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi doirasida yaratilgan imtiyoz va preferentsiyalardan keng foydalanish;
- ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksporti ko'lamini kengaytirish, kichik korxonalar mahsulotlarini eksportga yo'naltirishga ko'maklashish.

Ta'kidlash kerakki, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va bu sohalarni diversifikatsiya qilishga qaratilayotgan ulkan e'tibor eksport hajmi, uning tarkibi va sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatdoshligini oshirish orqali milliy iqtisodiyot raqobatdoshligini darajasini ko'tarishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan, yuqorida sanab o'tilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun Vazirlar Mahkamasi oldiga bir qator masalalarni (3.1.1-rasm) hal etish vazifasi qo'yildi.

Avvalambor, sanoatda mahsulot tannarxini 10-15 foizga pasaytirish yuzasidan har bir sanoat korxonasi bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ko'zda tutadigan dastur ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Bu vazifani amalga oshirish sanoat tarmoqlarida mahsulot tannarxini kamaytirish bo'yicha mavjud rezervlarni aniqlash va ishga solish, ishlab chiqarishni material va energiyani tejaydigan zamonaviy uskunalar bilan qurollantirish, mavjud quvvatlardan to'liq foydalanish, xomashyo va materiallar hamda yordamchi tarmoqlar xizmatlari narxinin asossiz o'sishini iqtisodiy yo'llar bilan cheklash, sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish va xorijdan olib kelinayotgan xomashyo, materiallar va butlovchi qismlarni ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Respublikamizda qayta ishlash sanoatining, ayniqsa qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishlash tarmoqlarining rivojlanishi darajasi mamlakatimizda

mavjud sanoat xomashyosini to'liq va chuqur qayta ishlash orqali raqobatdosh, yuqori likvidli mahsulotlar ishlab chiqarish uchun yetarli emas.

Iqtisodiyot raqobatdoshligini oshirish borasida kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar



3.1.1-rasm. Iqtisodiyot raqobatdoshligini oshirish borasida kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar

Mahsulotni tashqi bozorlarga olib chiqish uchun raqobatchilar, iste'molchilar, mahsulot eksport qilinayotgan mamlakatning qonunchiligi to'g'risida axborot ko'magini berish, davlatlararo kelishuvlarga ko'ra mamlakat korxonalari uchun xorijiy davlatlarda eng ko'p qulaylik rejimini yaratish, bozor va ishlab chiqarish infratuzilmalarini (banklar, transport tizimi va h.k) rivojlantirish, mahsulot reklamasiga ko'maklashish kabi chora-tadbirlar ham eksport qiluvchi korxonalar raqobatdoshligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Poytaxtimiz va viloyat markazlarida har yili o'tkazib kelinayotgan sanoat yarmarkalari, mamlakatimizning xalqaro savdo-sanoat yarmarkalaridagi ishtiroki mahsulot eksport qiluvchi korxonalarimizga o'z mahsulotlarini reklama qilish, xaridor va sheriklar izlab topish imkoniyatini kengaytirmoqda, reklama xarajatlarini tejash imkonini bermoqda.

Ushbu ijobiy tajribadan kelib chiqib, eksport yarmarkalarini o'tkazishni kengaytirish, yirik eksportchi korxonalarimizni nufuzli xalqaro yarmarkalarda ishtirok etishga jalb etish bo'yicha ham Hukumat qarorini qabul qilish Prezidentimiz tomonidan alohida vazifa etib belgilandi.

3.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat korxonalari faoliyatini rivojlantirish istiqbollari


Ma'lumki, iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlarida texnika taraqqiyotining xarakteri va mazmuni o'z xususiyatlariga ega bo'ladi. Masalan, bozor iqtisodiyotiga o'tish natijasida fan-texnika taraqqiyoti undagi miqdoriy o'zgarishlargagina emas, balki ko'proq sifat o'zgarishlariga qaratiladi. Umuman, samaradorlik iqtisodiyotdagi sifat o'zgarishlari bilan bog'liqdir, bu talab fan-texnika taraqqiyotiga ham to'liq joriy etiladi.

Sanoat ishlab chiqarishi ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini yuqori darajaga ko'tarishda inson omilining roli beqiyosdir. Insonlarning tashabbusi, kuch-g'ayrati, jonli ijodiyoti har qanday taraqqiyotning kudratli kuchi va eng muhim manbai hisoblanadi. Shu sababli ham insonni jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi deb aytadilar. U barcha yangiliklarni, shu jumladan, yangi, ilg'or texnika-texnologiyalarni yaratadi, ishlab chiqarishni oqilona tashkil etadi, ilmiy va amaliy kashfiyotlar qiladi. Barcha ishlab chiqarish vositalari inson mehnati bilan harakatga keltiriladi, foydali narsalar hosil qilinadi. Biroq inson faqat asosiy ishlab chiqaruvchi kuchgina emas, shu bilan birga ishlab chiqarish va boshqa ijtimoiy munosabatlarning sub`ekti hamdir. Odamlar faoliyati shu munosabatlar orqali ruyobga chiqadi. Bu faoliyat yo'nalishi va natijalari xodimning o'z faoliyatida

qanday o'y-fikrlarga, tasavvurlarga, maqsadlarga, hayotiy yo'l-yo'riqlarga, muddaolarga va psixologik e'tiqodlarga amal qilishiga bog'liq. Shu sababli inson omilining mohiyati, ahamiyati va mazmuni tahlil etilganda gap faqat inson haqidagina emas, balki avvalo inson yashab, mehnat qilayotgan ijtimoiy munosabatlarning butun tizimi bilan belgilanuvchi ijtimoiy sifatlar, faoliyatni rag'batlantiruvchi omillar va muddaolar haqida borishi kerak.

Mamlakatimizda Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda investitsiyalarni jalb etish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo'nalishga aylandi (3.2.1-rasm).

Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari



3.2.1-rasm. Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari

Yuqorida ta'kidlanganidek, mamlakatimizda investitsiyalarni jalb etishda avvalo ichki manbalarni safarbar etishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Bu yangi ishlab chiqarishni tashkil etish yoki mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini yanada kengaytirishda investorlarning o'z moliyaviy resurslari – korxona foydasi, amortizatsiya ajratmalari, pul jamg'armalari va boshqalardan kengroq foydalanish zarurligini anglatadi. Chunki, ichki manbalarning to'liq safarbar etilishi, bir

tomondan, mavjud iqtisodiy resurslardan tejamli va oqilona foydalanishni ta'minlash, boshqa tomondan, investitsiyalarning samaradorligini oshiradi.

Mamlakat miqyosidagi investitsiya faoliyatini samarali amalga oshirish maqsadida **investitsiya dasturi** ishlab chiqiladi. Investitsiya dasturlarida muayyan davrda amalga oshirilishi mo'ljallangan loyihalar, ularning bajarilish bosqichlari va sarflanishi ko'zda tutilgan mablag'lar qiymati hududlar va tarmoqlar bo'yicha aks ettiriladi. Investitsiya dasturlari uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lib, unda har bir yil uchun mo'ljallangan chora-tadbirlar alohida ifodalangan bo'ladi.

Shuningdek, mamlakatimizda texnik modernizatsiyalash bo'yicha **tarmoq dasturlari** ham ishlab chiqilib, ularda iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ishlab chiqarishning zamonaviy andozalariga o'tish, tejamkor va samarali texnologiyalarni qo'llash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi.

Respublikamizda investitsiya dasturi va texnik modernizatsiyalash bo'yicha tarmoq dasturlari doirasida 690 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilib, ularning 303 tasi muvaffaqiyatli yakunlandi. Buning natijasida 22 ta yirik ishlab chiqarish ob'ekti, jumladan, neft-gaz, kimyo, metallurgiya sanoatida 8 ta, mashinasozlik sanoatida 9 ta va qurilish industriyasida 5 ta ob'ekt foydalanishga topshirildi.

Iqtisodiy islohotlarni qonuniy jihatdan ta'minlashga yo'naltirilgan bunday va boshqa bir qator tadbirlar 2009-2012 yillarga mo'ljallangan, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini imkon qadar kamaytirishga qaratilgan Inqirozga qarshi choralar dasturini samarali amalga oshirishni huquqiy ta'minlash, dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida O'zbekistonga iqtisodiyotning barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qolish va aholining real daromadlarini oshirish imkonini berdi⁶.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, qo'lga kiritilayotgan yutuq va muvaffaqiyatlarning asosida iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonining o'z ahamiyatli hisoblanadi.


⁶ Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш – устувор мақсадимиздир. - Президент Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2010 йил 29 январь.

Shunga ko'ra, hozirda modernizatsiya jarayonining nazariy va metodologik asoslarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimov Vazirlar Mahkamasi yig'ilishidagi ma'ruzasida amalga oshirilgan, erishilgan yutuqlarni qayd etish bilan birga, bugungi kunda davlat va jamiyat qurilishi sohasida mamlakatimiz oldida turgan ulkan vazifalar, global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom etayotgan og'ir bir sharoitda iqtisodiyotimizning yanada barqaror rivojlanishini ta'minlash, uni diversifikatsiya va modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni qayta jihozlash kabi ishlarni izchil davom ettirish zarurligi to'g'risida ham batafsil to'xtalib o'tdilar.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini mutanosib rivojlantirish, uning samarali tarkibiy tuzilmasiga ega bo'lish va shu orqali barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish Vatanimiz taraqqiyoti va xalq farovonligini ta'minlashning muhim shartlaridan hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun esa eng avvalo iqtisodiyotning real sektorini jadal rivojlantirish zarur bo'ladi. Shunga ko'ra, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash dolzarb ahamiyat kasb etib, respublikamizda ushbu jarayon bir qator asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirildi (3.2.2-rasm).

Iqtisodiyot real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari



3.2.2-rasm. Iqtisodiyot real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari

Ayniqsa, real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlashda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam

hamkorlikni yo'lga qo'yish, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirish masalalari alohida o'rin tutdi.


Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotining deyarli barcha tarmoq va sohalarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash tadbirlarining keng ko'lamda amalga oshirilishi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Biroq, bu boradagi jiddiy muammo – ayrim mahsulotlarimiz tannarxining yuqori darajada qolayotganligi ularning raqobatdoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi (2008 yil 28 noyabr) 4058-sonli Farmonida muhim chora-tadbirlar qatorida mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarning barcha resurslardan samarali foydalanishi hisobiga mahsulot tannarxini 20 foizdan kam bo'lmagan miqdorda pasaytirish orqali ularning raqobatdoshligini ta'minlash vazifasi ham belgilab berilgan edi.

Ushbu vazifani amalga oshirish doirasida mamlakatimiz korxonalarida tannarxni pasaytirishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarga alohida e'tibor qaratildi (3.2.3-rasm).

Natijada sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxi 18 foizga, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, «O'zmetkombinat» aktsiyadorlik ishlab chiqarish birlashmasi, «O'zeltexsanoat» uyushmasi, «O'zqurilishmateriallari» kompaniyasi singari va boshqa korxona va tarmoqlarda 20-25 foizga kamaydi. Respublikamiz bo'yicha mahsulotlar tannarxini 2079,5 mlrd. so'mga yoki 20,38 foizga qisqartirishga erishilgan.

Tannarxni pasaytirishning asosiy yo'nalishlari



3.2.3-rasm. Tannarxni pasaytirishning asosiy yo'nalishlari

Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlashdagi muhim tadbirlardan yana biri – turli sabablarga ko'ra vujudga kelgan hamda korxonaning sog'lom moliya-xo'jalik faoliyati yuritishiga jiddiy ta'sir ko'rsatib kelayotgan qarzlarini qayta ko'rib chiqish (restrukturizatsiya qilish) hisoblanadi. Mazkur tadbir orqali korxonalarning mavjud qarzlarining vujudga kelish sabablari va ularni to'lash imkoniyatlari o'rganiladi. Har bir korxonaning ahamiyati, yaxlit xo'jalik tizimida tutgan o'rni, boshqa korxonalar bilan ishlab chiqarish va xo'jalik aloqalarini hisobga olgan holda mazkur qarzlarni to'lash muddatlarini kechiktirish, ular bo'yicha qo'llanishi mumkin bo'lgan turli sanksiyalarni bekor qilish, zarur hollarda, ushbu qarzlarni umuman ro'yxatdan chiqarish kabi choralar belgilanishi mumkin.

Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda ularni sog'lomlashtirish tadbirlari ham muhim o'rin tutadi. Zero, uzoq davr mobaynida sifatsiz mahsulotni ishlab chiqarish, eskirgan texnika va texnologiya asosida zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarni saqlab qolish iqtisodiyotning sog'lomligiga jiddiy putur yetkazishi mumkin. Bunday korxonalarni bankrot deb

e'lon qilish hamda moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tarkibiy o'zgartirish orqali qayta tuzish bu boradagi eng to'g'ri va samarali yechim hisoblanadi.

Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi 4053-sonli «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonida ko'zda tutilgan iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish, modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayoniga tijorat banklarining mablag'larini kengroq jalb qilishni yo'lga qo'yish tadbirlari muhim hisoblanadi.

Respublikamizda qayta ishlash sanoatining, ayniqsa qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishlash tarmoqlarining rivojlanishi darajasi mamlakatimizda mavjud sanoat xomashyosini to'liq va chuqur qayta ishlash orqali raqobatdosh, yuqori likvidli mahsulotlar ishlab chiqarish uchun yetarli emas.

Go'sht, sut, meva va sabzavotlarni qayta ishlash darajasi ham qoniqarli ahvolda emas. Shu sababli bu mahsulotlarni qayta ishlash sanoatini jadal rivojlantirish choralari ko'rilmogda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 31 oktyabrda qabul qilingan "Respublikaning oziq-ovqat sanoatini boshqarishni yanada takomillashtirish va 2012-2015 yillarda rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-1633-sonli qarori bilan tasdiqlangan dasturga ko'ra, oziq-ovqat xomashyosini qayta ishlashni kengaytirish orqali sanoat oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish ko'zda tutilgan.

Jumladan, 2011-2015 yillar davomida meva-sabzavot konservasi ishlab chiqarish 132,6 foizga, meva sharbatlari ishlab chiqarish 141,9 foizga, pishloq ishlab chiqarish (brinzani qo'shib hisoblaganda) 166,7 foizga, tomat pastasi ishlab chiqarish esa 116,7 foizga, margarin mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 127,8 foizga o'sdi.

Shu davrda meva-sabzavot konservalari eksporti 132,8 foizga, meva sharbatlari eksporti 129,4 foizga, tomat pastasi eksporti esa 172,4 foizga o'sishi mo'ljallangan qilingan. Bunga erishish uchun 2012-2015 yillar davomida oziq-

ovqat sanoati korxonalarini modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirish maqsadlarida qiymati 74,18 million AQSh dollariga teng loyihalar amalga oshiriladi. Bu loyihalarni moliyalashtirish uchun 36,5 million dollarga teng chet-el investitsiyalari jalb etildi.

Yurtimizning eksportga mahsulot chiqaruvchi korxonalariga, eksport qilinayotgan mahsulotning turi, ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushiga bog'liq tarzda bir qator imtiyozlar (masalan, foyda solig'ining pasaytirilgan imtiyozli stavkalarini qo'llash, bojxona bojlari bo'yicha imtiyozlar) belgilab berilan. Inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturiga ko'ra, mahsulot eksport qiluchi korxonalarga beriladigan imtiyozlar doirasi kengaytirildi. Jumladan, jahon bozorida eksport qilayotgan mahsulotiga talab pasaygan korxonalarga bank kreditlarini qaytarish muddatlari prolangatsiya qilindi, soliq to'lovlari kechiktirilgani uchun penya hisoblash to'xtatib qo'yildi va h.k.

Ammo, jahon bozorida raqobat kurashi kuchayib borayotgan bir paytda mamlakatimizning mahsulot eksport qiluvchi korxonalarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ularga qo'shimcha imtiyoz va prefrentsiyalar berish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurligi Prezidentimiz tomonidan ta'kidlandi va muhim vazifa sifatida kun tartibiga qo'yildi.

Mahsulotni tashqi bozorlarga olib chiqish uchun raqobatchilar, iste'molchilar, mahsulot eksport qilinayotgan mamlakatning qonunchiligi to'g'risida axborot ko'magini berish, davlatlararo kelishuvlarga ko'ra mamlakat korxonalari uchun xorijiy davlatlarda eng ko'p qulaylik rejimini yaratish, bozor va ishlab chiqarish infratuzilmalarini (banklar, transport tizimi va h.k) rivojlantirish, mahsulot reklamasiga ko'maklashish kabi chora-tadbirlar ham eksport qiluvchi korxonalar raqobatdoshligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Poytaxtimiz va viloyat markazlarida har yili o'tkazib kelinayotgan sanoat yarmarkalari, mamlakatimizning xalqaro savdo-sanoat yarmarkalaridagi ishtiroki mahsulot eksport qiluvchi korxonalarimizga o'z mahsulotlarini reklama qilish,

xaridor va sheriklar izlab topish imkoniyatini kengaytirmoqda, reklama xarajatlarini tejash imkonini bermoqda.

Ushbu ijobiy tajribadan kelib chiqib, eksport yarmarkalarini o'tkazishni kengaytirish, yirik eksportchi korxonalarimizni nufuzli xalqaro yarmarkalarda ishtirok etishga jalb etish bo'yicha ham Hukumat qarorini qabul qilish Prezidentimiz tomonidan alohida vazifa etib belgilandi.

Shu bilan birgalikda, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'llaridan yana biri mavjud ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilashdir. Ulardan samarali foydalanish masalasi ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida yanada dolzarblashadi. Shuning uchun ham O'zbekistonda ulardan har taraflama unumli foydalanishga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan qanchalik to'la va unumli foydalanilsa, ko'proq mahsulot ishlab chiqariladi, mahsulotning tannarxi kamayadi, korxonaning foydasi va samaradorligi oshadi.

Asosiy fondlardan va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishni yaxshilash ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga, kapital mablag' sarflamay qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishga, mehnat unumdorligi va samaradorlik o'sishiga hamda mahsulot tannarxini kamaytirishga imkon yaratadi. Shuning uchun ham hozirgi sharoitda respublikada ulardan unumli foydalanishga katta e'tibor berilmoqda.

Sanoat asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvatlari samaradorligini oshirishda korxonalarda texnologik uskunalarning ish smenasini ko'paytirish katta ahamiyatga egadir. Uskunalaridan intensiv foydalanishni yaxshilash uchun korxonaning texnika va texnologiyasini takomillashtirish, mashinalarning ish tezligini oshirish, metall quyishga, ximiyaviy jarayonlarga sarflanadigan vaqtni qisqartirish, shuningdek, kadrlar malakasining texnikaviy saviyasini oshirish, korxonalarni yiriklashtirish, ixtisoslashtirish va hamkorlik asosida mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sanoat milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i hisoblanadi va ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishda, aholining turmush-darajasi oshirishda uning ahamiyati beqiyosdir.

Sanoatning eng muhim sohasi og'ir sanoat bo'lib, u boshqa tarmoqlarga nisbatan juda tez o'sadi. Ayniqsa, uning yoqilg'i-energetika, mashinasozlik, metallurgiya va qurilish materiallari tez rivojlandi. Chunki bu sohalar respublikaning boshqa sanoati rivojlangan mamlakatlarga qaramligini yo'qotish va bu borada mamlakat mustaqilligini ta'minlash kerak edi.

O'zbekiston sanoati fan-texnika taraqqiyoti, boshqaruvi va tashkil etilishining takomillashuvi va kadrlar salohiyatining yuqori darajaga ko'tarilishi hamda xorijiy investitsiyalarning ko'plab jalb etilishi tufayli izchil rivojlana boshladi. Mustaqillik yillarida uning tarmoq strukturasi tubdan o'zgardi va natijada yangidan-yangi tarmoqlar yuzaga keldi.

Sanoat juda ko'p tarmoqlardan iborat bo'lib, ularning har biri korxonalar yig'indisidan tashkil topadi. Tarmoq hosil bo'lishi uchun korxonalar bir necha umumiy xususiyatlarga ega bo'ladilar.

Sanoat tarmoqlari o'rtasidagi ishlab chiqarishning o'zaro aloqadorligi va ularning takror ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan miqdoriy nisbatlari tarmoq strukturasi tashkil etadi. U sanoat taraqqiyotida ruy beradigan texnika va texnologiya rivojining darajasi, ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar bilan bog'liq ravishda o'zgaradi.

Turli sanoat tarmoqlari o'rtasidagi ishlab chiqarish aloqalari o'zaro mahsulot almashish, tajribalarni o'rganish bilan tavsiflanadi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ishlab chiqarishning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligi muhim kategoriya sifatida, umuman olganda ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini, erishilgan natija bilan jonli va buyumlashgan mehnat o'rtasidagi nisbatlarni o'rganadi.

2. Sanoat ishlab chiqarishi samaradorligining doimiy oshib borishi ob`ektiv zarurat hisoblanadi va milliy daromadning keskin ko`payishiga imkoniyat yaratib beradi.

3. Samaradorlik umumiy nazariyasida mezon muammosi, ya`ni baholash o`lchovi, asosiy nuqtai nazar masalasi alohida o`rin egallaydi. Jami ijtimoiy mehnatni tejash, uning unumdorligi o`sishi samaradorlikning mezoni hisoblanadi.

4. Iqtisodiy hisoblash va tahlil tajribasida ikki xil samaradorlikni farqlaydilar. Birinchi - bu umumiy (mutloq) samaradorlik, ikkinchisi- qiyosiy samaradorlik.

5. Sanoat ishlab chiqarishi samaradorligining darajasi turli xil o`zaro bir biri bilan bog`liq omillar ta`siri ostida shakllanadi.

6. Sanoatda ilmiy-texnika bazasi – bu uning ilmiy salohiyati va barcha mehnat vositalarining majmuidir. Bu salohiyat eng avvalo sanoatni, so`ngra, xalq xo`jaligining boshqa sohalari rivojini ta`minlaydi.

7. Sanoat sohasida fan-texnika taraqqiyotini an`anaviy yo`nalishlariga ishlab chiqarishni elektrlashtirish va elektronizatsiyalash, mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, ximiyalashtirish va yangi (progressiv) texnologiyalarni joriy etish kiradi.

8. O`zbekiston Respublikasi, shu jumladan Namangan viloyati bu borada o`zining juda katta salohiyatiga ega. Mamlakatning izchil va barqaror rivojlanishini ta`minlash uchun ana shu salohiyatdan to`la-to`kis foydalanish va fan-texnika taraqqiyotini yanada tezlatish zarur.

9. Sanoat sohasida ajoyib yutuqlar bilan birga bir qator kamchiliklar va hal etilmagan muammolar mavjud. XXI asrda bu muammolarning yechimini topish uchun O`zbekistonda, xususan Namangan viloyatida barcha imkoniyatlar, ya`ni juda katta moddiy, mehnat, moliyaviy va intellektual resurslar mavjud. Ana shu resurslardan oqilona foydalanish asosida O`zbekistonning juda qudratli va samarali sanoatini yanada yuqori darajaga ko`tarish mumkin.

10. Sanoat rejasini tuzish eng murakkab ishlardan biri hisoblanadi. Chunki bunda taraqqiyotning barcha tomonlarini oldindan ko`rish, ya`ni bashorat qilish

hamda bu taraqqiyotni ta'minlovchi iqtisodiy va texnik salohiyatning samarali variantlarini qidirib topish kerak bo'ladi. Mustaqillik yillarida rejalashtirishni takomillashtirish borasida anchagina ishlar amalga oshirildi. Lekin xalq xo'jaligini, jumladan, sanoatning rejali, mutanosib rivojlanishining bir qator muammolari hali o'z yechimini topgani yo'q. Shu sababli bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish va demokratik davlat, bozor iqtisodiyotining talablariga javob beradigan rejalashtirishni yaratish zarur.

11. Xodimlarning moddiy manfaatdorligi tamoyilini hayotga muntazam ravishda, ya'ni izchillik bilan tatbiq etish sanoat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli sanoat ishlab chiqarishida mehnatga haq to'lashni yaxshilash va uning eng progressiv usullarini qo'llashga alohida e'tibor berish kerak bo'ladi.

12. Kadrlarning bilim, ilm va malaka darajasi mamlakat ishlab chiqarish kuchlarining eng muhim elementi, ya'ni unsuri hisoblanadi. Malakali xodimlar tayyorlash, xodimlar malakasini oshirish, qayta tayyorlashga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Belgilangan ushbu vazifalarni amalga oshirish sanoat korxonalari faoliyatini rivojlantirishga olib boradi, deb hisoblaymiz. Natijada, korxonalarda foydalilik darajasi yuksalib boradi, xodimlarning mehnatdan manfaatdorligi ortadi va korxona murakkab sharoitda yashab qolishga va o'z faoliyatini davom ettirishga erishadi hamda mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojiga o'z hissasini qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi., - T.: O'zbekiston, 2001 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining “Korxonalar to'g'risida”gi Qonuni. Qonun va qarorlar to'plami., -T.: O'zbekiston, 2005 yil.
3. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir”. 2015 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining Majlisidagi ma'ruzasi, // Xalq so'zi, 2016 yil 16 yanvar.
4. Karimov I.A. “Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir”. T.: “O'zbekiston”, 2015 yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlagan ma'ruzalari, 2015 yil 26 noyabr .
6. Karimov I.A. “2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi”. 2013 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining Majlisidagi ma'ruzasi, // Xalq so'zi, 2014 yil 17 yanvar .
7. Karimov I.A. “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi boshqichga ko'taradigan yil bo'ladi”. 2011 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining Majlisidagi ma'ruzasi, // Xalq so'zi, 2012 yil 19 yanvar.

8. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari G' I.A.Karimov. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
9. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. T.: O'zbekiston, 2009. – 24 b.
10. Karimov I.A. «Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash,mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir». O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi ma`ruza. 2005 yil 28 yanvar .
11. Karimov I.A. «Mavjud salohiyat va imkoniyatlardan oqilona foydalanish-taraqqiyot omili. Xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutq, 2004 yil 29 yanvar.
12. Karimov I.A. “O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T., “O'zbekiston”, 1995.
13. Karimov I.A. O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T., “O'zbekiston”, 1993.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «2015-2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi Farmoni. 2015 yil 4 mart.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2008 yil 18 noyabr , PF-4053-son.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida. 2008 yil 28 noyabr , PF-4058-son.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 20 yanvar , PQ-1041-son.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. Iqtisodiy nochor korxonalarni tijorat banklariga sotish tartibini tasdiqlash to'g'risida. 2008 yil 19 noyabr, F-4010-son.
19. Abdullaev O. "Namangan viloyati", N., Namangan, 2000 yil.
20. Maxmudov E.X. «Korxona iqtisodiyoti» T., O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg'armasi Uyushmasi nashryoti, 2004 yil.
21. Ortiqov A. «Sanoat iqtisodiyoti» T., O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg'armasi Uyushmasi nashryoti, 2004 yil.
22. Пезнев В.Л. «Тактика и стратегия управления фирмой». - М., 1997.
23. Shog'iyocov T.Sh. Kompleks iqtisodiy tahlil // T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2009, 224 b.
24. Зайцев Н.А. Экономика промышленности предприятия. М., «ИНФРА-М», 1996.
25. Верст И., Равентоу П. Экономика фирмы. Учебник. М. «Высшая школа», 1994.
26. Саидова Г. Модернизация, техническое обновление и диверсификация производства, широкое внедрение инновационных технологий – необходимое условие выхода Узбекистана на новые рубежи на мировом рынке / «Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари» мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуманидаги тақдимот материаллари. – Т., ТДИУ, 2009 йил 5 май.
27. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Минск. «Новое знание», 1999.
28. Akramov E. "Korxonaning moliyaviy holati tahlili". – T.: "Moliya", 2003.
29. www.referat.uz
30. www.region.uz
31. www.lex.uz
32. www.minfin.ru
33. www.byudjet.uz

34. www.ziyonet.uz
35. www.namangan.uz
36. www.stat.uz